


24  
E46

Yu. G. MAHMUDOV, B. ELMURADOV,  
Z. J. XOLMIRZAEV

# KIMYO

fanidan  
mavzulashtirilgan  
**sinov savollari**  
**javoblari bilan**

a 73  
46



24  
EY6

TOSHKENT AVTOMOBIL VA YO'LLAR INSTITUTI


RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN MUSIQA  
VA SAN'AT AKADEMİK LITSEYI

B. ELMURADOV, Yu. MAHMUDOV,  
Z. XOLMIRZAYEV

# KIMYO

*fanidan mavzulashtirilgan  
sinov savollari*

(javoblari bilan)



013549/2

Toshkent – 2013

UO'K: 54(076.1)  
KBK: 24ya73  
E-43

Elmuradov, B.

Kimyo fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari  
(javoblari bilan) / B. Elmuradov. –T.: DIZAYN-PRESS, 2013. – 132 b.

I. Yu. Mahmudov  
II. Z. Xolmirzayev

UO'K: 54(076 934)  
KBK: 24ya73

*Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma institut ilmiy-metodik Kengashi tomonidan chop e'tishga tavsiya etilgan.*

*Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanmada kimyo darsliklaridagi mavzular, oid sinov savollari kel'tirilgan. Bu savollar talabalar bilimini joriy oraliq va yakuniy nazora'larida reyting baholash imkoniyatini beradi. Uslubiy qo'llanmadan kimyo o'qituvchilari, talabalar, abi'turen'tlar, o'quvchilar va kimyo faniga qiziquvchilar foydalanişlari mumkin.*

*Mas'ul muharrir:* H. T. OMONOV – p.f.d., professor

*Taqribchilar:* X. ZIYOYEV – k.f.d., professor;

D. K. SOBIROVA – t.f.n., dotsent;

U. RUSTAMOVA – oliv toifali kimyo o'qituvchisi.

ISBN 978-9943-20-141-5

© "DIZAYN-PRESS" MChJ nashriyoti, 2013

## K I R I S H

Oliy va o'tta - vsus ta'lim muassasalarida umumiyligi ta'lim maktablarida kimyo fanini o'rganisiga yuqori talab qo'yilmoqda, dastur va dar'sliklar komillashtirilmoqda, eksperimental mashg'ulotlar o'tkazish uchun boratoriya qayta jihozlanmoqda. Kimyo fanini mukammal o'rganish uchun dastlabki tushunchalarni, qonunlarni va uning sirlarini chuqur zlashtirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish kerak bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'rganiladigan kimyo fani bir necha muhim niy va amaliy masalalarini o'z ichiga qamrab oladi. Bularni talabalar - zlashtirishlari uchun turli darajadagi sinov savollarini mustaqil da to'g'ri bajarishga talabalar turli amaliy hisoblashlarni bajarishlari va nazariy materiallarni o'zlashtirishga to'g'ri keladi.

Texnika oliy ta'lim muassasalariga kirishda talabalar kimyo faniga halik e'tibor bermaganligi bois o'qish davrida qiyinchiliklarga duch moqda.

Shbu qo'llanmada talabalarga oson bo'lishi uchun umumiyligi ta'lim lab dasturlaridan ham boblar bo'yicha sinov savollari keltirilgan.

Qo'llanmada oliy ta'lim muassasalari umumiyligi kimyo kursi dasturiga juvosiq barcha mavzular yuzasidan nazariy va masalalarni yechish bo'yicha sinov savollari keltirilgan.

Fanlararo uzviylikni ta'minlash maqsadida mazkur qo'llanmaga organik kimyo fanidan sinov savollari keltirilgan. Qo'llanmada keltirilgan sinov savollari talabalarga organik kimyo kursining asosiy mavzularini to'g'ri va ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradigan qilib tuzilgan.

Sinov - bu qisqa, standart va odatda, vaqt bilan chegaralangan sinov. Qo'llanmada kimyo o'quv fani materiali asosida tuzilgan sinovlar berilgan.

Kimyoga qiziqadigan yoki uni o'rganayotgan har bir kitobxonda o'z bilimini sinab ko'rish istagi paydo bo'ladi. Buni sinovli savollar yordamida oson hamda katta ishonch bilan amalga oshirish mumkin. O'z-o'zini tekshirib ko'rishning bunday metodi kimyonini ongli ravishda o'rganishga yordam beradi. Sinov savollari faqat o'z-o'zini tekshirib ko'rishgagini yordam bermay, balki kimyodan olgan bilimlarini mustaqil ravishda akomillashtirish va chuqurlashtirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida

## KIMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

ayni fanga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishga, olingen bilimlaridan kundalik hayotda va amalda foydalanishga imkon beradi.

Qo'llanmadagi sinov savollari dastur asosida bo'limlarga bo'lib joylashtirilgan. Birinchi qismdagisi I—VIII boblar maktab dasturi asosida IX bob umumiy kimyo va X bob organik kimyo faniga oid.

Qo'llanma oxirida berilgan sinov savollarining javoblariga qarashga shoshilmang. Sinov savollarini diqqat bilan o'rganing, mustaqil ravishda ularga javob berishga harakat qiling va o'zingizni tekshirib ko'rish uchun javoblardan foydalaning.

Qo'llanma bilan ishlash jarayonida tasavvurga ega bo'lishingiz mumkin, bundan tashqari, kursning qaysi bo'limlarini darslikdan yoki qo'shimcha adabiyotlardan qarash zarurligini ham bilib olasiz.

Qo'llanmadan oliy o'quv yurtiga kiruvchilar, oliy o'quv yurtlarining talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari, o'rta maxsus va kasb-hunar va oliy ta'lim o'qituvchilari hamda kimyonni mustaqil o'rganuvchilar foydalanishlari mumkin.

1. Quyida keltirilganiardan qaysi birlari kimyoviy modda ekanligini belgilang:

- 1) temir; 2) qalam; 3) mis; 4) kapron; 5) simob;  
6) egov; 7) pichoq; 8) qand; 9) aluminiy:  
a) 2, 3, 4, 6, 7, 9;                    b) 1, 2, 4, 6, 7, 8;  
c) 2, 3, 4, 5, 7, 9;                    d) 1, 3, 4, 5, 8, 9.

2. Quyida keltirilgan hodisalardan qaysilar fizik hodisalar?

- 1) qorning erishi; 2) metallarning zanglashi; 3) ko'mirning yonishi;  
4) plastmassaning suyuqlanishi; 5) suvning muzlashi; 6) sutning achishi:  
a) 1, 4, 6;                                b) 2, 3, 6;  
c) 1, 4, 5;                                d) 1, 3, 5.

3. Quyidagi aytilgan hodisalardan qaysilar kimyoviy hodisalarga misol bo'la oladi?

- 1) yonish jarayonida alanganing hosil bo'lishi; 2) qattiq moddaning suyuq holatga o'tishi; 3) qishda suvning muzlashi; 4) daraxt yaproqlarining chirishi; 5) shakarning suvda erishi; 6) suvn qaynatganda cho'kmaning hosil bo'lishi:

- a) 2, 3, 5;                                b) 1, 4, 6;  
c) 3, 4, 5, 6;                            d) 1, 2, 4, 5.

4. Spirtli lampa yonganda, avval spirt bug'lanadi, keyin yonadi. Qanday hodisalar bo'lishini belgilang:

- a) kimyoviy;                                b) fizikaviy;  
c) avval kimyoviy so'ng fizikaviy;    d) fizikaviy so'ng kimyoviy.

5. Quyidagi aytilganlarning qaysi birida temir, azot va kislород oddiy moddalar kabi ifoda etilgan?

- 1) temir nitrat tarkibidagi temir, azot va kislород bo'ladi; 2) azot va kislород — rangsiz, hidsiz va mazasiz gaz; 3) temir-kumush rang, oq yaltiroq metall, yaxshi egiluvchan, oson magnitlanadi; 4) havo tarkibida taxminan 20 foiz kislород, 78 foiz azot bor; 5) baliqlar suvda erigan kislород bilan nafas oladi; 6) temir sulfid tarkibida temir bor:

- a) 2, 3, 4, 5;                                b) 1, 3, 5, 6;  
c) 2, 3, 5, 6;                                d) 2, 4, 5, 6.

#### **KIMYO fanidan marzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)**

6. Quyidagi aytigal hollarning qaysi birida kimyoviy hodisa haqida so'z boradi?

1) daraxtlarga qirov tushishi; 2) suvdan elektr toki o'tkazilib, kislorod olinishi; 3) daryo suvi qizdirilganda undan kislorod ajralib chiqishi; 4) mis buyumlarda yashil dog'lar paydo bo'lishi; 5) osh tuzini suvdan erishi; 6) suyuq havodan azotni ajralib chiqishi:

- a) 2, 3; b) 3, 5;  
 c) 2, 4; d) 3, 6.

7. Quyida keltirilganlardan qaysi birlari fizik jism ekanligini belgilang:

1) temir; 2) qaychi; 3) kumush; 4) suv; 5) simob;

6) bolta; 7) stakan; 8) shaker; 9) choynak:

- a) 1, 3, 5, 8;  
b) 2, 4, 5, 7;  
c) 2, 6, 7, 9;  
d) 3, 5, 6, 8.

#### **8. Quyidagilardan oddiy moddalarni belgilang:**

1) tuz; 2) suv; 3) temir; 4) bur; 5) oltingugurt; 6) shaker; 7) mis oksidi;  
8) vodorod;



#### **9. Kimyo fani nimani o'rgatadi?**

1) sonlar va ular ustida bajariladigan amallarni; 2) moddaning tarkibini; 3) planetalarning harakatlanish trayektoriyalarini; 4) jismlarning yuzasi va hajmlarini hisoblab topishni; 5) birikmalarni olinishi va ishlatalish sohalarini; 6) o'simlik va hayvon hujayralarini ko'payish yo'llarini; 7) moddalarning kimyoviy xossalarini; 8) insoniyatning taraqqiyot bosqichlarini;



#### **10. Moddalar dan murakkablarini toping:**

1) temir; 2) oltin; 3) aluminiy; 4) suv bug'i; 5) bur; 6) tuz;

- a) 1, 2, 3; b) 4, 5, 6;  
 c) 1, 3, 5; d) 2, 4, 6.

**11. Qanday moddalarga toza moddalar deyiladi?**

1) bir nechta element atomlarından tashkil topgan moddalarga; 2) kimyoviy xossalari o'zgarmaydigan moddalarga; 3) fizikaviy xossalari o'zgarmaydigan moddalarga; 4) suyuqlanish va qaynash temperaturalari unchalik yuqori

## **B. ELMURADOV, Yu. G. MAHMUDOV, Z. J. XOLMIRZAYEV**

bo'lmagan moddalarga; 5) faqat qattiq holdagi moddalarga – toza moddalar deyiladi:

- |          |          |
|----------|----------|
| a) 1, 2; | b) 3, 4; |
| c) 2, 3; | d) 4, 5. |

**12. Azot molekulasining massasi temir atomining massasidan taxminan necha marta kichikligini hisoblab toping:**

- |       |       |
|-------|-------|
| a) 5; | b) 2; |
| c) 6; | d) 3. |

**13. Aralashma deb nimaga aytildi?**

1) tarkibi ikki yoki undan ortiq moddalardan iborat bo'lgan element atomlaridan tashkil topgan birikmalarga; 2) tarkibi ikki yoki undan ortiq element atomlaridan tashkil topgan moddalarga; 3) fizikaviy xossalari o'zgaruvchan bo'lgan moddalarga; 4) zichligi, suyuqlanish va qaynash temperaturalari o'zgarmas bo'lgan moddalarga aytildi:

- |          |             |
|----------|-------------|
| a) 1, 2; | b) 2, 3, 4; |
| c) 1, 3; | d) 2, 3.    |

**14. Formulasi keltirilgan moddalarning qaysi birlari oddiy moddalarga misol bo'la oladi?**

- |  |             |
|--|-------------|
| 1) NH <sub>3</sub> ; 2) N <sub>2</sub> ; 3) Na; 4) CO <sub>2</sub> ; 5) PCl <sub>5</sub> ; 6) O <sub>2</sub> ; |             |
| a) 1, 3, 4;  | b) 1, 2, 3; |
| c) 1, 4, 5;  | d) 2, 3, 6. |

**15. Quyidagi elementlarining: aluminiy, kremniy, kalsiy, kaiiy, fosfor va fторlarning kimyoviy belgilari qaysi javobda to'g'ri yozilgan?**

- |                          |                         |
|--------------------------|-------------------------|
| a) Al, Se, Ca, K, P, F;  | b) Al, Si, Ca, K, P, F; |
| c) Al, Si, Ca, K, Pt, F; | d) Al, Si, Ga, K, P, F. |

**16. Qaysi olim kimyoviy elementlarning hozirgi kundagi belgilaridan foydalanishni taklif qilgan?**

- |                       |                  |
|-----------------------|------------------|
| a) J. L. Prust;       | b) J. Dalton;    |
| c) Y. Ya. Bertselius; | d) E. Franklend. |

**17. Quyidagi elementlardan qaysilari 2 atomli oddiy modda molekulasini hosil qiladi? mis; vodorod; oltingugurt; geliy; azot; kislород; uglerod; kalsiy; fтор; berilliy:**

- |  |  |
|--|--|
| a) fтор; vodorod; azot; kislород;        |  |
| b) kislород; azot; vodorod; oltingugurt; |  |
| c) vodorod; mis; geliy; azot;            |  |
| d) uglerod; kalsiy; berilliy; mis.       |  |

## **KIMYO fanidan navzulashdirilgan sinov savollari (javoblari bilan)**

### **18. Oddiy moddalar deb:**

- a) tarkibi o'zgaruvchan bo'lgan moddalarga;
- b) bir xil turdag'i atomlardan tashkil topgan moddalarga;
- c) faqat qattiq holdagi, ikki yoki bir necha element atomlaridan tashkil topgan moddalarga;
- d) har xil turdag'i atomlardan tarkib topgan moddalarga aytiladi.

### **19. Quyidagi fikrlarning qaysi birlari to'g'ri? Atom.**

- 1) moddalarning eng kichik kimoviy bo'linmas zarrachasidir;
- 2) elementning kimoviy xossalarni saqlab qoluvchi eng kichik zarrachasidir; 3) moddaning kimoviy xossalarni ifodalovchi eng kichik zarrachasidir; 4) musbat zaryadlangan yadro va elektronlardan iborat elektroneytral zarrachasidir; 5) kimoviy jarayonlarda ishtirok etmaydigan moddaning eng kichik zarrachasidir:

- |             |             |
|-------------|-------------|
| a) 1, 2, 3; | b) 2, 3, 4; |
| c) 1, 2, 4; | d) 3, 4, 5. |

### **20. Toza moddalar aralashmalardan nima bilan farqlanadi?**

- a) toza moddalar doimiy (o'zgarmas) tarkibga ega emas;
- b) toza moddalarning fizik xossalari o'zgaruvchan bo'ladi;
- c) toza moddalarni tarkibi qismlarga fizik usullar bilan ajratish mumkin;
- d) toza moddalar doimiy (o'zgarmas) tarkibga ega.

### **21. Laboratoriya sharoitida suv, shakar va kerosindan iborat bir jinsli aralashma tayyorlash mumkinmi?**

- 1) yo'q, chunki kerosin suvda erimaydi; 2) mumkin, chunki shakar suvda yaxshi eriydi; 3) yo'q, shakar kerosinda erimaydi; 4) mumkin, chunki shakar ham, kerosin ham suvda yaxshi aralashadi; 5) yo'q, chunki shakar suvda erigani bilan, kerosin suv bilan chin eritma hosil qilmaydi:

- |             |             |
|-------------|-------------|
| a) 1, 2, 3; | b) 2, 3, 4; |
| c) 1, 2, 4; | d) 1, 3, 5. |

### **22. Murakkab moddalar deb qanday moddalarga aytiladi?**

- a) tarkibi o'zgaruvchan bo'lgan moddalarga;
- b) bir xil turdag'i atomlardan tashkil topgan moddalarga;
- c) faqat qattiq holdagi, ikki yoki bir necha element atomlaridan tashkil topgan moddalarga;
- d) har xil turdag'i atomlardan tarkib topgan moddalarga aytiladi.

B. ELMURADOV, Yu. G. MAHMUDOV, Z. J. XOLMIRZAYEV

23. Formulaga asoslanib sirka kislotasining  $\text{CH}_3\text{COOH}$  nisbiy molekular massasini hisoblab toping:

- a) 59; b) 62;  
c) 57; d) 60.

24. Quyidagi birikmalarning:  $\text{SO}_2$ ,  $\text{K}_2\text{S}$ ,  $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{SO}_3$  qaysi birida oltingugurtning massa ulushi (foiz) ko'p ekanligini hisoblab toping:

- a)  $\text{SO}_3$ ; b)  $\text{SO}_3$   
 c)  $\text{H}_2\text{S}$ ; d)  $\text{K}_2\text{S}$

25. Kalsiy sulfidda kalsiy massasining oltingugurt massasiga nisbati 5:4 nisbatida. Kalsiy sulfiddagi Ca va S larning massa ulushlari (foiz) qanday?

- a) Ca – 60,0; S – 40,0;      b) Ca – 40,0; S – 60,0;  
 c) Ca – 55,6; S – 44,4;      d) Ca – 50,0; S – 50,0.

26. Qaysi formuladan foydalanib modda tarkibidagi elementlarning massa ulushlarini hisoblab topish mumkin?

- a) Ar (e)/U (mod); b) m = vℓ;  
 c)  $\sqrt{ } = m/M$ ; d)  $\alpha = A/B$

27. 8 g oltingugurt temir kukuni bilan reaksiyaga kirishishi natijasida 22 g FeS hosil bo'ldi. Reaksiyaga necha gramm temir kukuni olingan?

- a) 14; b) 7;  
c) 12; d) 9.

**28. Qaysi olim modda tarkibining doimiylik qonunini kashf etgan?**

- a) M.V. Lomonosov; b) J. Prust;  
 c) A. Avogadro; d) D. Dal'ton.

29. Magniy karbonatdagi ( $MgCO_3$ ) kislородning massa ulushini (foiz) hisoblab toping:



30. Temirning bir bo‘lagi havoda qattiq qizdirilganda uning massasi ortadi. Bunda qanday reaksiya sodir bo‘ladi?

- a) ajralish; b) o'rin olish;  
 c) almashinish; d) birikish.

31. 3 mol sulfat kislotasining ( $H_2SO_4$ ) massasini hisoblang?

- a) 281; b) 305;  
c) 297; d) 294.

## **KIMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)**

32. Quyidagi birikmalarda xlor atomining valentligi birga tengligini bilgan holda, y bilan birikkan element atomlarining valentligini aniqlang:

- 1)  $\text{AlCl}_3$ ; 2)  $\text{CaCl}_2$ ; 3)  $\text{SnCl}_4$ ; 4)  $\text{LiCl}$ :  
 a) I—III—IV—I; b) II—II—III—II;  
 c) III—II—IV—I; d) III—I—II—I.

33. Quyidagi usullarni qaysi biri bir jinsli aralashmalarni ajratib olishda qo'llaniladi?



### 34. Quyidagi fikrlarni qaysi birlari to‘g‘ri?

1) aralashmalarning tarkibi doimiy bo'ladi; 2) kimyoviy birikmalarning tarkibi o'zgarmaydi; 3) aralashmalar tarkibiga kiradigan moddalar o'zlarining xossalariini saqlab qolmaydi; 4) birikmani hosil qiladigan moddalar o'zlarining xossalariini saqlab qolmaydi; 5) aralashmani tashkil etuvchi moddalarni fizik usullar bilan ajratib olish mumkin; 6) kimyoviy biriknialarni tarkibiy qismlarga fizik usullardan foydalaniib ajratish mumkin:



35. Quyidagi moddalarni nisbiy molekular massalari kamayib borishi tartibida joylashtiring?



### **36. Moddalarning qaysilari, toza moddaligini aniqlang:**

- 1) daryo suvi; 2) distirlangan suv; 3) kumush; 4) oltin; 5) sut:  
 a) 1, 2, 3; b) 2, 3, 4;  
 c) 3, 4, 5; d) 1, 3, 5.

37. Quyidagi aytilgan hodisalardan qaysilari fizik hodisalarga misol bo‘ladi?

### **38. Tarkibning doimiylik qonuniga binoan:**

- a) bir turdag'i atomlar boshqaga turdag'i atomlardan massasi va xossalari bilan farq qiladi;
  - b) fizik hodisalarda molekulalar saqlanib qoladi, kimyoviy hodisalarda esa parchalanadi;
  - c) har qaysi kimyoviy toza modda qayerda bo'lishidan va olinish isulidan qat'i nazar bir xil o'zgarmas tarkibga ega bo'ladi;
  - d) molekulaning massa atom birliklarida ifodalangan massasi moddaning molekular massasi deyiladi.

### **39. Moddalarning qaysi birlari oddiy moddaligini belgilang:**

- 1)  $\text{NO}_2$ ; 2) N<sub>2</sub>; 3) K; 4)  $\text{CO}_2$ ; 5)  $\text{PCl}_3$ ; 6) O<sub>2</sub>; 7) MgO; 8) Ag;  
a) 1, 3, 4, 7; b) 1, 2, 3, 5;  
c) 1, 4, 5, 6; d) 2, 3, 6, 8.

40. Bir murakkab modda parchalanganda mis oksid bilan suv hosil bo'ldi, bu modda tarkibiga qanday elementlar kiradi?

- a) mis, kislород, vodorod;  
b) kislород, mis, ugлерод;  
c) vodorod, mis, kumush;  
d) vodorod, kislород, xlor.

41. Quyidagi elementlarning: oltin, aluminiy, kaliy, kremniy va magniyning kimyoiv belgilari to‘g‘ri yozilgan javobni belgilang?

- a) Al, K, Si, P, Mg;      b) Al, Ca, Se, P, Ag;  
c) Au, Al, K, Si, Mg;      d) As, K, Si, P, Au.

42. Moddalarning qaysilari murakkab modda ekanligini toping:



**43. Quyidagilardan qaysi birining massasi kattaligini hisoblab toping:**

- 1) uglerod atominikimi yoki suv molekulasinikimi; 2) suv molekulasinikimi yoki magniy atominikimi:

- a)  $m(C) > m(H_2O)$ ,  $m(H_2O) < m(Mg)$ ;  
 b)  $m(C) > m(H_2O)$ ,  $m(H_2O) > m(Mg)$ ;  
 c)  $m(C) < m(H_2O)$ ,  $m(H_2O) > m(Mg)$ ;  
 d)  $m(C) < m(H_2O)$ ,  $m(H_2O) < m(Mg)$ .

44. Formuladagi indeksning koeffitsiyentdan farqi, u:

- a) alohida olingan molekula va atomlarning sonini ko'rsatadi;
  - b) koefitsiyentdan farqi yo'q;

## **KIMYO fanidan mavzulashtrilgan sinov savoltari (javoblari bilan)**

- c) 4 O molekuladagi 4 O atomlar sonini ko'rsatadi;
  - d) atomning massasini ko'rsatadi.

45. Reaksiya uchun 8 g oltingugurt va 28 g temir olinsa qancha temir sulfid hosil bo‘jadi?

- a) 0,75; b) 0,25;  
c) 0,62; d) 0,43.

46. Temir disulfidda  $\text{FeS}_2$  elementlar o‘zaro qanday massa nisbatlarda birikkan?

- a) 57:65; b) 8:7;  
 c) 30:64; d) 16:16.

47. Tarkibi quyidagicha bo'lgan birikmaning eng oddiy formulasini aniqlang:

K – 39,7 foiz; Mn – 27,9 foiz; O – 32,4 foiz.

- a)  $\text{KMnO}_4$ ; b)  $\text{K}_2\text{Mn}_2\text{O}_7$   
 c)  $\text{K}_3\text{MnO}_4$ ; d)  $\text{K}_4\text{MnO}_4$

48. Tarislardan qaysi biri M.B. Lomonosov kashf etgan moddalar massasining saqlanish qonunini ifodalaydi?

a) har qaysi kimyoviy toza modda qayerda bo'lishidan va olinish usulidan qat'i nazar bir xil o'zgarmas tarkibga ega bo'ladi;

b) kimyoviy reaksiyaga kirishgan moddalarning massasi hosil bo'lgan moddalarning massasiga teng;

c) kimyoviy elementlarning hamda ular hosil qiladigan oddiy va murakkab moddalarning xossalari shu element atomlari yadrosi zaryadining miqdoriga davriy ravishda bo'gliqdir;

d) elektronlarda ajralib chiqqan modda miqdori elektrolitlardan o'tgan elektr miqdoriga to'g'ri proporsionaldir.

49. Bir jinsli bo'lmagan aralashmadan moddalarni ajratib olish uchun quyidagi fizik usullarning qaysi biri qo'llanilishi mumkin?

1) bug'latish; 2) magniy ta'sir ettirish; 3) kristallash; 4) distillash;  
5) filtrash; 6) tindirish:



**50. O'rin olish reaksiyasi deb qanday reaksiyaga aytildi?**

a) issiqlik yutilishi bilan boradigan reaksiyaga;

b) oddiy va murakkab modda orasida bo'ladigan, natijada oddiy modda

## B. ELMURADOV, Yu. G. MAHMUDOV, Z. J. XOLMIRZAYEV

atomi murakkab modda tarkibiga kiruvchi element atomlarining birining o'rnini olishi bilan boradigan reaksiyaga;

c) bir necha oddiy yoxud murakkab moddalardan bitta yanada murakkabroq modda hosil bo'ladigan reaksiyaga;

d) yorug'lik va issiqlik ajralib chiqishi bilan boradigan reaksiyaga aytildi.

**51. Bir modda kislородда yondirilganda karbonat angidrid, azot va suv hosil bo'ladi. Bu modda qanday elementlardan tashkil topgan?**

a) H, C, N;

b) C, O, N;

c) O, N, Cu;

d) H, N, O.

**52. 8 g oltingugurt bilan to'liq birikishi uchun magniy metalidan necha gramm olinishi kerak?**

a) 6;

b) 8;

c) 7;

d) 5.

**53. Kristall sodaning  $\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 10 \text{H}_2\text{O}$  nisbiy molekular massasi nechaga teng?**

a) 106;

b) 180;

c) 286;

d) 143.

**54. Suv elektr toki ta'sirida parchalanganda 4 g vodorod hosil bo'lsa, bunda necha gramm suv parchalanganligini hisoblab toping?**

a) 18;

b) 30;

c) 27;

d) 33.

**55. Qaysi modda yengil: kislород –  $\text{O}_2$ , metan –  $\text{CH}_4$  yoki uglerod (VI) oksid  $\text{CO}_2$ . Ularni nisbiy molekular massalari ortib borishi tartibida joylashtiring:**

a)  $\text{O}_2$ ,  $\text{CH}_4$ ,  $\text{CO}_2$ ;

b)  $\text{CO}_2$ ,  $\text{CH}_4$ ,  $\text{O}_2$ ;

c)  $\text{CO}_2$ ,  $\text{O}_2$ ,  $\text{CH}_4$ ;

d)  $\text{CH}_4$ ,  $\text{O}_2$ ,  $\text{CO}_2$ .

**56. Kalsiy karbonatdagi –  $\text{CaCO}_3$ , kalsiyning massa ulushini (soiz) hisoblab toping:**

a) 20;

b) 30;

c) 40;

d) 50.

**57. Massasi 24,8 g bo'lgan tetrafosforda necha molekula fosfor bo'ladi?**

a)  $6 \cdot 10^{-22}$ ;

b)  $1,05 \cdot 10^{-22}$ ;

c)  $1,2 \cdot 10^{-22}$ ;

d)  $1,25 \cdot 10^{-23}$ .

**58. Quyidagi elementlarning vodorot bilan hosil qilgan birikmalarining formulalari to'g'ri yozilgan javobni belgilang:**

1) azot (III); 2) kremniy (IV); 3) oltingugurt (II); 4) brom (I):

## KIMYO fanidan mayzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

- a)  $\text{NH}_3$ ,  $\text{Si}_2\text{H}$ ,  $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{BrH}$ ;      b)  $\text{NH}_3$ ,  $\text{SiH}_4$ ,  $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{HBr}$ ;  
c)  $\text{HN}_3$ ,  $\text{ON}$ ,  $\text{SiH}$ ,  $\text{OBr}$ ;      d)  $\text{H}_4\text{N}$ ,  $\text{SiH}_3$ ,  $\text{SH}_3$ ,  $\text{Br}_2\text{H}_3$ .

59.  $3.01 \cdot 10^{23}$  ta molekula necha g suvda bo‘ladi?

- a) 15;      b) 9;  
c) 12;      d) 21.

60. 96 g kislorod moddaning qanday mol miqdoriga to‘g‘ri keladi?

- a) 4;      b) 1;  
c) 2;      d) 3.

61. Miqdori 0,2 mol  $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3$ , dagi temirning massasi va atom sonini aniqlang:

- a) 11,2 g;  $2,408 \cdot 10^{23}$ ;      b) 22,4 g;  $2,408 \cdot 10^{23}$ ;  
c) 11,2 g;  $6,02 \cdot 10^{23}$ ;      d) 22,4 g;  $12,04 \cdot 10^{23}$ .

62. Quyidagi reaksiyalarning qaysi birida nazariy jihatdan, reaksiya mahsuloti maksimal bo‘lishini aniqlang:

- a) 20 g Fe + 10 g S →;      b) 15 g Fe + 15 g S →;  
c) 5 g Fe + 25 g S →;      d) 10 g Fe + 20 g S →.

63. Modda miqdori 0,625 mol bo‘lgan  $\text{H}_3\text{PO}_4$  tarkibida necha gramm fosfor bor?

- a) 7,75;      b) 8,95;  
c) 9,86;      d) 10,65.

64. Massalari teng bo‘lgan quyidagi keltirilgan moddalarning qaysi birida modda miqdori (mol) ko‘proq bo‘ladi?

- a)  $\text{K}_2\text{SO}_4$ ;      b)  $\text{KNO}_3$ ;  
c)  $\text{NaCl}$ ;      d)  $\text{KCIO}_4$ .

65. Moddalar massasining saqlanish qonunini qaysi olimlar kashf etgan?

1. M. V. Lomonosov; 2. A. L. Lavuaze; 3. D. Dal’ton; 4. J. Prust:

- a) 1,4;      b) 2,3;  
c) 3,4;      d) 1,2.

66. Reaksiyalardan qaysi biri o‘rin olish reaksiyasi?





- a)  $\text{C} + \text{O}_2 \rightarrow$ ;      b)  $\text{Na} + \text{HOH} \rightarrow$ ;  
c)  $\text{CuSO}_4 \rightarrow$ ;      d)  $\text{LiOH} + \text{CO}_2 \rightarrow$ .

67. Moddalar massasining saqlanish qonunini tajribada isbotlash uchun M.V.Lomonosov qanday asbobdan foydalangan?





- a) stakan;      b) kolba;

c) silindr; d) retorta.

**68. Birikish reaksiyasini belgilang:**



**69. Birikmalarning qaysi birida qo'rg'oshining ulushi (foiz) ko'p?**



**70. Reaksiya uchun 14 g oltingugurt va 21 g temir aralashmasi olingan bo'lsa necha g temir (II) sulfid hosil bo'ladi?**

a) 35;

b) 28;

c) 42;

d) 33.

**71.  $\text{Cu}(\text{OH})_2 + \text{CuCO}_3 \rightarrow 2\text{CuO} + \text{H}_2\text{O} + \text{CO}_2$  o'zgarish sxemasiga asosan ikki mol malaxit  $\text{Cu}_2(\text{OH})_2\text{CO}_3$  termik parchalanganda necha mol mis (II) oksidi hosil bo'lishini hisoblab toping.**

a) 1;

b) 2;

c) 3;

d) 4.

**72. Reaksiyaga 72 g aluminiy bilan 60 g oltingugurt olib qizdirilsa, reaksiya natijasida qancha va qanday modda hosil bo'ladi hamda qaysi oddiy modda ortib qoladi?**



**73. N.sh. da o'lchangan 150 l havoda magniy qirindisi yonganda havoning hajmi 127,6 l gacha kamayganligi aniqlangan. Necha gramm magniy yoqilgan?**

a) 24,3; b) 48,6;

c) 12,15; d) 66,45.

**74. Quyidagi massalarning qaysi biri  $\text{NaCl}$  niki hisoblanadi?**

a) 60,0; b) 58,5;

c) 75,4; d) 55,6.

**75. Reaksiyalardan qaysi biri almashinish reaksiyasi?**



**76. Reaksiya uchun 16 g mis va 10 g oltingugurt olingan, qancha g**

## KIMYO fanidan mayzulashtirilgan surov savollari (javoblari bilan)




mis (II) sulfid hosil bo‘ladi? Reaksiya uchun olingan moddalarning qaysi biri ortib qoladi? Uning massasini grammda aniqlang:

- a) 26; 2 g S; b) 21; 1 g Cu va 3 g S;  
 c) 24; 2 g S; d) 26; hamma modda to'liq sarflanadi.

**77.  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  dagi uglerodning massa ulushini (soiz) hisoblab toping**

a) 12,4; b) 11,32;  
 c) 24,0; d) 10,2.

**78. Quyidagi reaksiyalar reaksiyalarning qaysi tipiga kiradi?**




- a) birikish, o'rin olish;  
b) almashinish, birikish;  
c) ajralish, almashinish;  
d) ajralish, birikish.

79. Massasi 160 g natriy gidroksidi tortib olindi, bunda qancha molekula natriy gidroksidi tortilganligini aniqlang:

- a)  $6,02 \cdot 10^{23}$ ; b)  $12,04 \cdot 10^{23}$   
 c)  $18,06 \cdot 10^{23}$ ; d)  $24,08 \cdot 10^{23}$

**80. Quidagi tenglama bilan ifodalangan reaksiyaning tipini aniqlang:**



- a) o'rin olish, 6 mol;      b) birikish, 3 mol;  
 c) parchalanish, 4 mol;      d) almashinish, 5 mol.


81. 9 g Al kukuni 20 g S bilan aralashtirildi, aralashma qizdirildi. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan Al-S. massasini toping;

- a) 29; b) 25;  
c) 23; d) 27

82. Qanday reaksiyalarga birikish reaksiyaları deviladi?

- a) issiqlik yutilishi bilan boradigan reaksiyalarga;  
b) oddiy va murakkab moddalar hosil bo‘ladigan reaksiyalarga;  
c) bir necha oddiy yoxud murakkab moddalardan yanada murakkabroq inodda hosil bo‘ladigan reaksiyalarga;  
d) yorug‘lik va issiqlik ajralib chiqishi bilan boradigan reaksiyalarga aytildi.

83. Reaksiyalardan qaysi birlari o'rin olish reaksiyalari hisoblanadi?







- 2)  $\text{CuCl}_2 + \text{Fe} \rightarrow \text{Cu} + \text{FeCl}_2$ ;
  - 3)  $2\text{NaCl} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{HCl}$ ;
  - 4)  $\text{CaO} + \text{CO}_2 \rightarrow \text{CaCO}_3$ ;
  - 5)  $2\text{HCl} + \text{Zn} \rightarrow \text{ZnCl}_2 + \text{H}_2$ ;

84.  $\text{HNO}_3 + \text{NaOH} \rightarrow \text{NaNO}_3 + \text{H}_2\text{O}$  reaksiyaning qaysi xiliga kiradi?

- a) birikish;  
c) airalish; b) almashinish;  
d) o'rin olish.

**85. Keltirilgan struktura formulalar asosida oltingugurt, bor, uglerod va fosforining valentliklarini aniqlang:**



- a) 1, 2, 3, 4; b) 3, 1, 4, 5;  
c) 2, 3, 4, 5; d) 1, 4, 2, 3.

**86. Qaysi formuladan foydalanib modda miqdorini topish mumkin?**

- a)  $v = \frac{A}{n} 100\%$ ;      b)  $m = r \cdot V$   
 c)  $n = \frac{m}{M}$ ;      d)  $\varrho = \frac{A}{B}$ .

**87. Quyidagi fikrlardan qaysi biri noto‘g‘ri?**

- a) kimyoviy reaksiya borishida moddalarning massa yig'indisi saqlanadi;
  - b) reaksiya borishida reaksiya uchun olingan moddalarning molekulalari saqlanadi;
  - c) reaksiyaga kirishayotgan moddalarning atomlari saqlanadi;
  - d) reaksiya borishida reaksiyagacha bo'lgan atomlar sonining yig'indisi reaksiyadan keyingi atomlar sonining yig'indisiga teng bo'ladi.

**88. Reaksiyalarning qaysi birlari o'rin olish reaksiyasiga taalluqli?**

- $$1) \text{CaCO}_3 \rightarrow \text{CaO} + \text{CO}_2; 2) \text{Zn} + 2\text{HCl} \rightarrow \text{ZnCl}_2 + \text{H}_2;$$

$$3) 2\text{NaOH} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{H}_2\text{O}; 4) \text{Na}_2\text{O} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{NaOH};$$

## KIMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

- 5)  $C + O_2 \rightarrow CO_2$ ; 6)  $2Na + 2H_2O \rightarrow 2NaOH + H_2$ ;  
7)  $CaO + H_2O \rightarrow Ca(OH)_2$ ; 8)  $CaCO_3 \rightarrow CaO + CO_2$ ;  
9)  $CuSO_4 + Fe \rightarrow FeSO_4 + Cu$ ; 10)  $HCl + NaOH \rightarrow NaCl + H_2O$ ;  
a) 2, 7, 10; b) 3, 5, 8;  
c) 2, 6, 9; d) 1, 4, 9.

89. Quyidagi reaksiya tenglamasi uchun koefitsiyent tanlang, bu reaksiyaning tipini belgilang:  $KClO_3 \rightarrow KCl + O_2$ .

- a) 2 – 3 – 2, birikish; b) 3 – 2 – 3, ajralish;  
c) 2 – 2 – 3, ajralish; d) 3 – 2 – 2, o'rinn olish.

90. 8 g oltingugurt to'liq reaksiyaga kirishishi uchun qancha (g) aluminiy sarflanadi?

- a) 4, 5; b) 4;  
c) 3, 9; d) 4, 3.

91. Quyidagi reaksiyalarning tipini belgilang:

- 1)  $4KClO_3 \rightarrow KCl + 3KClO_4$ ; 2)  $Na_2O + CO_2 \rightarrow Na_2CO_3$ ;  
3)  $2Fe(OH)_3 \rightarrow Fe_2O_3 + 3H_2O$ ; 4)  $2CO + O_2 \rightarrow 2CO_2$ ;  
a) 1 – birikish, 2 – o'rinn olish, 3–4 – ajralish;  
b) 1–2 – almashinish, 3–4 – birikish;  
c) 1 – almashinish, 2 – birikish, 3 – ajralish, 4 – birikish;  
d) 1–3 – ajralish, 2–4 – birikish.

92. Qaysi olim tomonidan nisbiy atom massa haqidagi tushunchani kimyo faniga kiritilgan?

- a) R. Boyl; b) J. Dalton;  
c) A. Avogadro; d) D.I. Mendeleyev.

93. Tarozining bir pallasiga 1 mol soda  $Na_2SO_4$  qo'yildi. Taroz pallalari muvozanat holiga kelishi uchun tarozining ikkinchi pallasiga qancha mol selitra  $KNO_3$  qo'yish kerak?

- a) 0,03; b) 1,41;  
c) 0,87; d) 1,05.

94. 132 g uglerod (IV) oksid qancha miqdorni (mol) tashkil etadi?

a) 3; b) 2;  
c) 3,4; d) 2,52.

95. Ajralish reaksiyalarida:

- a) ikki yoki bir necha oddiy yoxud murakkab moddalardan bitta yanada murakkabroq modda hosil bo'ladi;

## B. EI MURADOV, Yu. G. MAHMUDOV, Z. J. XOLMIRZAYEV

b) reaksiya oddiy va murakkab moddalar orasida sodir bo'lib, reaksiya natijasida oddiy moddaning atomlari murakkab moddadagi elementlardan birining ato'inlari o'rnnini oladi;

c) bitta murakkab moddadan ikkita yoki bir nechta oddiy yoxud murakkab moddalar hosil bo'ladi;

d) reaksiya ikkita murakkab modda orasida borib, bunda reaksiyaga kirishgan moddalar o'zlarining tarkibiy qismlarini almashtiradi.

### 96. Atom – molekular ta'limotga asosan:

1) fizik hodisalar kimyoviy hodisalardan farq qilib fizik hodisalarda molekulalar saqlanib qolmaydi;

2) molekulalar atomlardan tarkib topgan;

3) kimyoviy hodisalarda molekulalar odatda parchalanadi;

4) kimyoviy reaksiyaga kirishgan moddalarning massasi hosil bo'lgan moddalarning massasiga teng bo'lmaydi;

5) molekulalar orasida o'zaro tortilish va itarilish kuchlari mavjud;

6) bir turdag'i atomlar boshqa turdag'i atomlardan massasi va xossalari bilan farq qilmaydi;

7) atomlar ham molekulalar singari to'xtovsiz harakatda bo'ladi:


a) 1, 4, 5, 6;

b) 3, 4, 5, 6;

c) 4, 5, 6, 7;

d) 2, 3, 5, 7.

### 97. Quyidagi keltirilgan jarayonlardan qaysi biri birikish reaksiyasi hisoblanadi?



### 98. Oltingugurt bilan reaksiyada 0,5 mol temir ishtiroy etdi. Reaksiya uchun olingan temirning massasini (g) toping:

a) 28;

b) 30;

c) 27;

d) 29.

### 99. Modda molekulasingin massasi $16,27 \cdot 10^{23}$ g, shu moddaning molyar massasini hisoblab toping:

a) 83,75;

b) 97,95;

c) 99,08;

d) 94,71.

### 100. Qanday hodisalar kimyoviy hodisalar deyiladi?

a) moddalar bir-biri bilan o'zaro ta'sirlashib, turli xil o'zgarishlarga uchrashish hodisasiga;

## **KIMYO sanidan marzu! ashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)**

- b) moddalarning shakli, fizikaviy holati hamda atom yadrolarining tarkibi o'zgarishi hodisasiga;
  - c) moddalar tarkibi va xossalari jihatidan farq qilmaydigan va molekulalarning tarkibi o'zgarmaydigan hodisalarga;
  - d) bir xil moddalar tarkibi va xossalari jihatidan farq qiladigan boshqa moddalarga aylanadigan va bunda atomlar yadrolarining tarkibi o'zgaradigan hodisalarga – kimyoviy hodisalar deviladi.

*II bob.* KISLOROD. OKSIDLAR. YONISH

1. Olimlardan qaysi birlari kislorodni birinchi bo'lib kashf etgan va o'rgangan?

1) K.V. Shelye; 2) G. Kavendish; 3) J. Pristli; 4) A. Lavraze.

- a) 1, 3;  
c) 3, 4;

## **2. Laboratoriyada kislorod qaysi usulda olinadi?**

- a)  $\text{CaCO}_3 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{CaO} + \text{CO}_2$ ; b)  $\text{S} + \text{O}_2 \rightarrow \text{SO}_2$ ;  
 c)  $\text{Cu} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{CuSO}_4 + \text{H}_2$ ; d)  $2\text{KClO}_3 \rightarrow 2\text{KCl} + 3\text{O}_2$ .

3. 5 mol vodorod peroksidning  $H_2O_2$ , katalizator ishtirokida parchalaushidan necha g kislorod bosil bo'ldi?

- a) 80; b) 78;  
c) 82; d) 79.

4. Rux, natriy, aluminiy va uglerodning kislorodda yonishidan hosil bo'lgan oksidlarning formulalari to'g'ri yozilgan javobni belgilang:

- a)  $\text{ZnO}$ ,  $\text{Na}_2\text{O}$ ,  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{CO}_2$ ;      b)  $\text{ZnO}$ ,  $\text{Na}_2\text{O}$ ,  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{CO}_2$ ;  
 c)  $\text{ZnO}$ ,  $\text{Na}_2\text{O}$ ,  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{CO}_2$ ;      d)  $\text{ZnO}$ ,  $\text{NaO}$ ,  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{CO}_2$ .


5. Quyidagi keltirilgen jarayonlardan qaysi biri parchalanish reaksiyası hisoblanadi?

- a)  $2\text{Na} + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{NaOH} + \text{H}_2$ ; b)  $\text{CaO} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Ca}(\text{OH})_2$ ;  
 c)  $\text{CaCO}_3 \rightarrow \text{CaO} + \text{CO}_2$ ; d)  $\text{CuSO}_4 + \text{Fe} \rightarrow \text{FeSO}_4 + \text{Cu}$ .

6. Reaksiyada 9 g suv hosil bo'ldi, qancha gramm kislorod reaksiyada ishtirok elgan?

- a) 7; b) 10;  
c) 8; d) 11.

7. Sanoatda kislorod qaysi reaksiya bo'yicha olinadi?



B. ELMURADOV, Yu. G. MAHMUDOV, Z. J. XOLMIRZAYEV



- b)  $2\text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{H}_2\text{O} + \text{O}_2$ ;  
c) suyuq havo  $\rightarrow$  bug'latish  $\rightarrow \text{N}_2 + \text{O}_2$ ;  
d)  $2\text{HgO} \rightarrow 2\text{Hg} + \text{O}_2$ .

8. Quyidagilardan o'rın olish reaksiyasi tenglamasini belgilang:

- a)  $\text{CuSO}_4 + \text{Fe} \rightarrow \text{FeSO}_4 + \text{Cu}$ ; b)  $\text{CuO} + 2\text{HCl} \rightarrow \text{CuCl}_2 + \text{H}_2\text{O}$ ;  
c)  $\text{CaO} + \text{CO}_2 \rightarrow \text{CaCO}_3$ ; d)  $\text{Ca}(\text{OH})_2 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{CaSO}_4 + \text{H}_2\text{O}$ .

9. Oksidlar deb nimaga aytiladi?

- a) vodorod va kislota qoldig'iidan;  
b) metall atomi va vodoroddan;  
c) kislota qoldig'i va metallardan;  
d) biri kislorod bo'lgan ikki elementlardan tarkib topgan murakkab moddalarga.

10. Quyidagi moddalarning har biridan 1 moli parchalanganda qaysi biridan eng ko'p miqdorda kislorod hosil bo'ladi?

- a)  $\text{H}_2\text{O}_2$ ; b)  $\text{HgO}$ ;  
c)  $\text{KClO}_3$ ; d)  $\text{KMnO}_4$ .

11. Temir (III) sulfatdagи  $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3$  kislorodning massa ulushini hisoblab toping:

- a) 0,38; b) 0,46;  
c) 0,59; d) 0,48.

12. 2,5 g vodorod bilan 24 g kislorod aralashmasi portlatilganda necha g suv hosil bo'ladi?

- a) 26,5; b) 22,5;  
c) 20,0; d) 24,5.

13. 8 g magniy oksidini olish uchun qancha g kislorod kerak?

- a) 3,0; b) 22,5;  
c) 2,9; d) 2,7.

14. Quyidagi reaksiyalardan qaysi biri ajralish reaksiyasiga taalluqli?

- a)  $2\text{Mg} + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{MgO}$ ; b)  $\text{Cu} + \text{Hg}(\text{NO}_3)_2 \rightarrow \text{Cu}(\text{NO}_3)_2 + \text{Hg}$ ;  
c)  $\text{Na}_2\text{O} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{NaOH}$ ; d)  $2\text{KClO}_3 \rightarrow 2\text{KCl} + 3\text{O}_2$ .

15. Massasi 30,63 g bo'lgan bertole tuzidan  $\text{KClO}_3$  kislorod olish jarayonida qattiq qoldiq massasi 18,47 g ni tashkil etgan. Ajralib chiqqan kislorodning massasini (g) hisoblab toping:

- a) 14,75; b) 11,63;

## KIMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

- c) 12,89; d) 12,16.

### 16. Endotermik reaksiyalarda:

- a) gaz ajralib chiqadi hamda issiqlik chiqishi kuzatiladi;
- b) reaksiya borishi uchun issiqlik yutiladi;
- c) reaksiya ko'p miqdordagi issiqlik chiqishi bilan boradi;
- d) faqat gaz moddalar hosil bo'lib, issiqliknинг chiqishi yoki yutilishi kuzatilmaydi.

17.  $4P + 5O_2 \rightarrow 2P_2O_5$  tenglamaga asosan 71 g  $P_2O_5$  hosil bo'lsa, reaksiyaga kirishgan kislorodning miqdorini (mol) aniqlang:

- a) 1,25; b) 1,50;
- c) 1,00; d) 0,75.

### 18. Qanday reaksiyaga yonish deb aytildi?

- a) issiqlik yutilishi bilan boradigan;
- b) oddiy va murakkab moddalar hosil bo'ladigan;
- c) yorug'lik va issiqlik ajralib chiqadigan;
- d) kislorod ajralib chiqadigan – reaksiyaga yonish deb aytildi.

19. Agar ko'mir yondirilganda 33520 kJ issiqlik miqdori chiqqan bo'lsa, qancha ko'mir (g) yonganligini hisoblab toping. Hisoblash uchun quyidagi tenglamadan foydalaning:  $C + O_2 \rightarrow CO_2 + 402,24 \text{ kJ}$ .

- a) 1111; b) 1000;
- c) 999; d) 1010.

### 20. Qaysi olim havoning tarkibini tajriba yo'li bilan isbotlagan?

- a) M.V. Lomonosov; b) A.L. Lavuaze;
- c) R. Boyl; d) G. Lyussak.

### 21. Ekzotermik reaksiyalar deb nimaga aytildi?

- a) issiqlik yutilishi bilan boradigan;
- b) tuz va suv hosil bo'ladigan;
- c) issiqlik chiqishi bilan boradigan;
- d) ikki oddiy moddadan bitta murakkab modda hosil bo'ladigan reaksiyalarga aytildi.

### 22. Termokimyoiy tenglamalar deb nimaga aytildi?

- a) hosil bo'lgan modda miqdoriga;
- b) reaksiya borish sharoitiga;
- c) issiqlik effektiga;
- d) o'zaro reaksiyaga kirishuvchi moddalar massasiga aytildi.

**B. ELMURADOV, Yu. G. MAHMUDOV, Z. J. XOLMIRZAYEV**

**23. Laboratoriya sharoitida havo tarkibi, olimlar tomonidan qanday aniqlangan?**

- a) fosforni kolbada yondirib;
- b) laboratoriyada fosforni yondirib;
- c) fosforni qalpoqcha tagida yondirib;
- d) ichida suvi bor idishda graduslangan qalpoqcha tagida fosforni yondirib aniqlangan.

**24. Quyidagi reaksiyalarning tipini aniqlang:**

- 1)  $2\text{H}_2\text{O}_2 \rightarrow 2\text{H}_2\text{O} + \text{O}_2$ ;      2)  $\text{CaO} + \text{CO}_2 \rightarrow \text{CaCO}_3$ ;
- 3)  $2\text{Al(OH)}_3 \rightarrow \text{Al}_2\text{O}_3 + 3\text{H}_2\text{O}$ ;      4)  $2\text{FeCl}_3 + \text{Fe} \rightarrow 3\text{FeCl}_2$ ;
- a) 1, 3-birikish; 2, 4-o'r'in olish;      b) 1, 3-ajralish; 2, 4-birikish;
- c) 1, 2-ajralish; 3, 4-birikish;      d) 1, 4-ajralish; 2, 3-o'r'in olish.

**25. Reaksiyalardan qaysi biri endotermik reaksiya hisoblanadi?**

- 1)  $2\text{H}_2 + \text{O}_2 = 2\text{H}_2\text{O} + 572 \text{ kJ}$ ;      2)  $2\text{HgO} = 2\text{Hg} + \text{O}_2 - 180 \text{ kJ}$ ;
- 3)  $\text{C} + \text{O}_2 = \text{CO}_2 + 402,24 \text{ kJ}$ ;      4)  $\text{Fe} + \text{S} = \text{FeS} + 97,2 \text{ kJ}$ ;
- 5)  $2\text{H}_2\text{O} = 2\text{H}_2 + \text{O}_2 - 572 \text{ kJ}$ :
- a) 1, 3;      b) 3, 4;
- c) 2, 5;      d) 1, 5.

**26. Quyidagi tenglama bilan ifodalangan reaksiya reaksiyaning qaysi turiga taalluqli?  $2\text{H}_2\text{O}_2 \rightarrow 2\text{H}_2\text{O} + \text{O}_2$ .**

Agar reaksiyaga 5 mol vodorod peroksid kirishgan bo'lsa, u holda qancha miqdorda (mol) kislород ajralib chiqadi?

- a) birikish; 3;      b) o'r'in olish; 2;
- c) ajralish; 2,5;      d) birikish; 2,5.

**27. 367,5 g bertole tuzining  $\text{KClO}_4$  parchalanishidan qancha miqdorda (mol) kislород hosil bo'ladi?**

- a) 4,5;      b) 3,5;
- c) 4,0;      d) 3,0.

**28. Quyidagi tenglama bilan ifodalangan reaksiya uchun koefitsiyent tanlang:  $\text{MnO} + \text{O}_2 \rightarrow \text{Mn}_2\text{O}_3$ .**

- a) 2-2-2;      b) 4-2-2;
- c) 4-1-2;      d) 3-2-2.

**29. 79 g kaliv permanganat  $\text{KMnO}_4$  termik parchalanganida (n-sh.da) qancha hajm (l) kislород olish mumkin?**

- a) 5,6;      b) 11,2;

## KIMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

- c) 22,4; d) 144,8.

30. Massasi 6,2 g bo'lgan natriy oksidida  $\text{Na}_2\text{O}$  gi natriyning massasini (g) hisoblab toping:

- a) 5,3; b) 4,9;  
c) 4,6; d) 5,1.

31. 0,75 mol ozonda nechta kislород atomi bor?

- a)  $11,28 \cdot 10^{23}$ ; b)  $10,34 \cdot 10^{23}$ ;  
c)  $15,26 \cdot 10^{23}$ ; d)  $13,55 \cdot 10^{23}$ .

32. Berilgan reaksiyalar guruhining qaysi birida hamma reaksiyalar uchun koefitsiyentlar to'g'ri qo'yilgan?

- a)  $2\text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{H}_2 + \text{O}_2$       b)  $\text{Na}_2\text{O} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{NaOH}$   
 $2\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \rightarrow 2\text{NH}_3$        $2\text{SO}_2 + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{SO}_3$ ,  
 $2\text{P} + 5\text{O}_2 \rightarrow 2\text{P}_2\text{O}_5$ ;       $2\text{KClO}_3 \rightarrow 2\text{KCl} + 3\text{O}_2$ ;  
c)  $\text{Al} + 3\text{Cl}_2 \rightarrow 2\text{AlCl}_3$ ,      d)  $\text{N}_2 + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{NO}$   
 $2\text{Fe}_3\text{O}_4 + 3\text{C} \rightarrow 4\text{Fe} + 3\text{CO}_2$ ,       $\text{P}_2\text{O}_5 + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{HPO}_3$ ,  
 $2\text{Ba} + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{BaO}$ ;       $\text{Al}_2\text{O}_3 + 3\text{H}_2 \rightarrow 2\text{Al} + 3\text{H}_2\text{O}$ .

33. Toshko'mir (C yonganda 264 g uglerod (IV) oksid  $\text{CO}_2$  hosil bo'lgan bo'lsa, sarflangan kislородning miqdorini (mol) hisoblab toping:

- a) 5,7; b) 6,5;  
c) 5,0; d) 6,0.

34. Quyidagi fikrlarning qaysi biri xato ekanligini belgilang:

- 1) Toza kislородда yonish havo atmosferasida yonishiga qaraganda katta tezlik bilan boradi;
- 2) berilgan miqdordagi modda kislородда yondirilganda havoda yondirilganligiga qaraganda yuqoriqoq temperatura hosil bo'ladi;
- 3) yonish faqat kislород ishtirokida emas, balki boshqa moddalar ishtirokida ham sodir bo'ladi;
- 4) yonish kamida uchta modda ishtirok etgandagina sodir bo'ladi;
- 5) yonish jarayonida issiqlik ajralib chiqadi:  
a) 1, 2;      b) 2, 3;  
c) 3, 4;      d) 4, 5.

35. Quyidagi yoqilg'ilardan qaysi biri tevarak atrof-muhitni eng kam ifloslantiradi?

- a) o'tin;      b) kerosin;  
c) toshko'mir;      d) gaz.

36. Quyidagi reaksiya tenglamasiga asosan:  $2S + 3O_2 \rightarrow 2SO_3$ , 80 g oltingugurt (VI) oksid hosil bo'lsa, u holda reaksiyaga kirishgan oltingugurning massasini (g) aniqlang:

- a) 32,0; b) 32,2;  
c) 31,7; d) 33,1.

37. 6 g ko'mir 18 g kislorodda yondirilganda necha g uglerod (IV) oksidi  $\text{CO}_2$  hosil bo'ladi?

- a) 24; b) 21;  
c) 23; d) 22.

38. Quyidagi moddalarni nisbiy molekular massalari ortib borishi tartibida joylashtiring? O<sub>2</sub>, N<sub>2</sub>, CO<sub>2</sub>, NH<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>O, Na.

- a) O<sub>2</sub>, N<sub>2</sub>, CO<sub>2</sub>, NH<sub>3</sub>, Na, H<sub>2</sub>O; b) N<sub>2</sub>, CO<sub>2</sub>, O<sub>2</sub>, NH<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>O, Na;  
 c) H<sub>2</sub>O, Na, NH<sub>3</sub>, N<sub>2</sub>, CO<sub>2</sub>, O<sub>2</sub>; d) NH<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>O, Na, N<sub>2</sub>, O<sub>2</sub>, CO<sub>2</sub>.

39. 90 g suvda necha g kislorod bor?

- a) 80; b) 88;  
c) 78; d) 85.

40. 51 g aluminiyning kislород билан реаксијага киришидан қанча мидор (мол) aluminiy oksid hosil bo'ladi?

- a) 1,20; b) 0,79;  
c) 0,94; d) 1,35.

### **III bob. VODOROD, KISLOTALAR, TUZLAR**

1. Qaysi olim birinchi bo'lib vodorodni sof holda olgan va uni o'rsgangan?

- a) J. Pristli;  
b) A.L. Lauuaze;  
c) G. Kavendish;  
d) D.I. Mendeleyev.

## 2. Havo molekular vodoroddan necha marta og'ir?

- a) 14,5; b) 13;  
c) 15; d) 13,5.

### **3. Sanoatda vodorod qaysi usullar bilan olinadi?**

- 1) xlorid kislotaga rux metall ta'sir ettirib olinadi;
  - 2) suvni o'zgarmas elektr toki yordamida parchalab olinadi;
  - 3) tabiiy gaz tarkibiga kiruvchi metan gazini havosiz joyda qattiq qizdirib  
parchalash yo'li bilan olinadi;

## **KIMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)**

4) vodorod peroksidni  $H_2O_2$ , parchalash yo'li bilan olinadi:

- a) 1, 2; b) 2, 3;  
c) 3, 4; d) 1, 4.

#### **4. Qaldiroq gaz deb ganday gazga aytildi?**

- a) havo tarkibidagi azot gaziga;
  - b) bertolle tuzi parchalanganda hosil bo'ladigan gazga;
  - c) Ikki hajm vodorod bilan bir hajm kislородning aralashmasiga;
  - d) ko'mir yonganda atmosferaga chiqayotgan karbonat angidridga-qaldiriq z deb ataladi.

##### **5. Vodorod ta'sirida 10 g mis (I) oksid qaytarilganda qancha massali?**

(g) suv hosil bo'ldi?

- a) 1,35; b) 1,20;  
c) 1,25; d) 1,15.

6. Metan  $\text{CH}_4$  ni  $1500^\circ\text{C}$  dan yuqori temperaturada termik parchalash yo'li bilan vodorod olinadi. 20 g vodorod olish uchun necha g metan termik parchalanishi kerak?

- a) 85 g; b) 78 g;  
c) 75 g; d) 80 g.

7. 1 1 vodorodning massasi 0,089 g ni hisobga olgan holda 1 g natriyga suv bilan ta'sir ettirilganda qancha hajm (l) vodorod ajralib chiqishini hisoblab toping:

- a) 0,45; b) 0,48;  
 c) 0,50; d) 0,41.

**8. Suv elektr toki ta'sirida parchalanganda vodorod ajralib chiqadi. Bunda qanday reaksiya sodir bo'ladi?**

- a) o'rin olish; b) almashinish;  
c) birikish; d) ajralish.

9. Quyidagi reaksiyalar natijasida suv hosil bo'lishi kimyoviy reaksiyalarning qaysi tipiga taalluqli?

- 1) vodorodning havoda yonishiga;  
2) mis (II) oksidning vodorod ta'sirida qaytarilishiga:  
a) 1-birikish, 2-o'rin olish;      b) 1-ajralish, 2-birikish;  
c) 1-birikish, 2-almashinish;      d) 1-almashinish, 2-almashinish.

#### **10. Vodorod uchun qanday kimyoviy xossalalar xosligini belgilang:**

- a) kislotalar bilan kimyoviy reaksiyalarga kirishishi;

**B. ELMURADOV, Yu. G. MAHMUDOV, Z. J. XOLMIRZAYEV**

- b) metallmaslar bilan birikib tuz hosil qilishi;
- c) kislorodda yonish, metallarni ularning oksididan qaytarishi;
- d) havoda toza vodorednинг o'z-o'zidan portlashi.

**11. Kislotalar deb qanday modalarga aytildi?**

- a) ikki elementdan tashkil topgan, tarkibida doimo kislorod bo'lgan;
- b) qayerda, qaysi usuldan qat'i nazar, tarkibi o'zgarmas bo'lgan ikki elementdan tashkil topgan;
- c) o'mini matall atomlariga bera oladigan, vodorod atomlari va kislota qoldig'idan tashkil topgan;
- d) metall atomlari va kislota qoldiqlaridan tashkil topgan.

**12. Vodorod ba'zi aktiv metallar bilan birikib nima hosil qiladi?**

- a) gidridlar; b) oksidlar;
- c) kislotalar; d) asoslar hosil qiladi.

**13. 2 g vodorod 12 g kislorod bilan portlatilganda necha (g) suv hosil bo'ladi?**

- a) 14; b) 13;
- c) 14,5; d) 13,5.

**14. Quyida formulalari keltirilgan kislotalardagi kislota qoldiqlarining valentligini aniqlang:**

- 1)  $H_3PO_4$ ; 2)  $H_2S$ ; 3)  $HNO_3$ ; 4)  $H_3BO_3$ ; 5)  $H_2SO_3$ ;
- a) 3-3-1-3-3; b) 3-2-1-3-2;
- c) 3-2-2-3-2; d) 3-2-3-4-2.

**15. 49 g sulfat kislota olish uchun qancha massali (g) oltingugurt kerak bo'ladi? Hisoblash uchun  $S \rightarrow H_2SO_4$  o'zgarishdan foydalaning:**

- a) 22; b) 18;
- c) 24; d) 16.

**16. 6 g vodorodning to'la yonishidan hosil bo'lgan suvning miqdorini (mol) va massasini (g) toping:**

- a) 3; 54; b) 2; 36;
- c) 4; 72; d) 1; 18.

**17. 90 g suv elektr toki ta'sirida parchalanganda necha g va mol vodorod chiqadi?**

- a) 9; 4,5; b) 8; 4,0;
- c) 10; 5,0; d) 11; 5,5.

## **KIMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)**

**18. Guruhlardan qaysi biridagi hamma elementlar suyultirilgan sulfat kislota bilan reaksiyaga kirishib vodorodni ajratib chiqaradi?**

- a) Na, Mg, Fe;                      b) Cu, Ca, Na;  
 c) Fe, Zn, Hg;                      d) S, Ca, Zn.

**19. Xlorid kislota quyidagi moddalarning qaysi birlari bilan reaksiyaga kirishadi?**

- 1) Na<sub>2</sub>O; 2) Zn; 3) SO<sub>3</sub>; 4) Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>; 5) Cu; 6) N<sub>2</sub>O<sub>5</sub>;  
 a) 2, 3, 4;                            b) 3, 4, 5;  
 c) 4, 5, 6;                            d) 1, 2, 4.

**20. Qanday moddalar indikator deyiladi?**

- a) biri kislorod bo'lgan ikki elementdan tarkib topgan;  
 b) kislota va ishqorlarning eritmalari ta'sirida o'z rangini o'zgartiradigan;  
 c) kimyoiy reaksiyalarni tezlashtiradigan, lekin bunda o'zi sarflanmay qoladigan;  
 d) metall atomlari va gidroksil gruppalaridan tashkil topgan moddalarga indikator deyiladi.

**21. Ortofosfat kislotaning 2 molining massasi qancha (g) bo'лади?**

- a) 190;                                b) 200;  
 c) 202;                                d) 196.

**22. Kislotalar ishqorlar bilan o'zaro reaksiyaga kirishib:**

- a) asos va suv;                        b) tuz va suv;  
 c) tuz va vodorod;                    d) oksid va tuz hosil qiladi.

**23. Kislota qoldig'ining (anionning) zaryadi qanday aniqlanadi?**

- a) kislota qoldig'ining zaryadi kislotaning har bir molekulasi dissotsialanganda hosil qiladigan kislorod ionlarning soni bilan aniqlanadi;  
 b) kislota qoldig'ining zaryadi kislotaning har bir molekulasi dissotsialanganda hosil qiladigan vodorod va kislorod ionlarning soni bilan aniqlanadi;

- a) atom massalari har xil bo'lgani uchun;
- b) o'zgaruvchan va o'zgarmas valentlikka ega bo'lgani uchun;
- c) har xil oksidlanish darajasiga ega bo'lgani uchun;
- d) tashqi elektron qavatidagi elektronlar soni turlicha bo'lgani uchun.

18. Tashqi elektron qavatining elektron formulasi ...  $3s^23p^4$  ko'rinishga ega elementni belgilang:

- a) Cr; b) S;
- c) Se; d) O.

19. Tartib raqami 26 bo'lgan element davriy sistemaning qaysi joyida joylashgan?

- a) III davr, 4-qator, VII guruh; b) V davr, 5-qator, VI guruh;
- c) IV davr, 4-qator, VIII guruh; d) IV davr, 5-qator, VIII guruh.

20. Element atomining har bir energetik pog'onasining "p" – pog'onachasida eng ko'pi bilan nechta elektron bo'ladi?

- a) 6; b) 2;
- c) 10; d) 14.

21. Elementlarning izotoplari bir-biridan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi?

- 1) tartib raqami; 2) protonlar soni; 3) neytronlar soni;
- 4) massa soni; 5) elektronlar soni:

- a) 2, 3; b) 3, 4;
- c) 1, 3; d) 4, 5.

22. Qaysi atomning radiusi kichik?

- a) litiy; b) berilliyl;
- c) bor; d) azot.

23. Geliy  $He_2^3$ ,  $He_2^4$  va kislород  $O_8^{18}$  izotoplарining yadrosida nechtadan neytron bo'ladi? Javoblarini izotoplarning berilish tartibida joylashtiring:

- a) 2–2–8; b) 1–2–10;
- c) 3–4–18; d) 3–5–8.

## KIMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

24.  $1s^2 2s^2 2p^6$  elektron konfiguratsiyaga ega bo'lgan element davriy sistemaning qaysi guruhiga kiradi?

- a) I;
- b) II;
- c) VI;
- d) VIII.

25. Elementlarning tartib raqami nimani bildiradi?

- 1) yadro zaryadi; 2) atomdagi elektronlar sonini;
- 3) atomdagi neytronlar sonini; 4) atom massasini:
- a) 1, 4;
- b) 2, 3;
- c) 3, 4;
- d) 1, 2.

26. Kimyoviy elementlar davriy sistemasini kim va nechanchi yilda yaratgan?

- a) 1811-y. P. Bertlo;
- b) 1861-y. A. Butlerov;
- c) 1849-y. L. Meyer;
- d) 1869-y. D. I. Mendeleyev.

27. Quyidagi elementlarning qaysi birining tashqi elektron qavati ... $4s^2 4p^5$  elektron konfiguratsiyasiga ega?

- a)  $Z_{Br} = 35$ ;
- b)  $Z_{Mn} = 25$ ;
- c)  $Z_{Cl} = 17$ ;
- d)  $Z_K = 19$ .

28. Elektron konfiguratsiyasi:  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6$  ko'rinishga ega elementning qaysi davr, guruh va guruhchaga joylashganligini aniqlang:

- a) III; 2; asosiy;
- b) III; 7; qo'shimcha;
- c) III; 6; qo'shimcha;
- d) III; 8; asosiy.

29. Element atomining "d" — pog'onachasida juftlashmagan elektronlarning maksimal soni nechta bo'lishi mumkin?

- a) 10;
- b) 5;
- c) 7;
- d) 2.

30. Davrning raqamiga asoslanib nimani aniqlash mumkin?

- a) elementning nisbiy atom massasini;
- b) umumiy elektronlar sonini;
- c) elektron joylashgan energetik pog'onalar sonini;
- d) elementning oksidlanish darajasini.

31. Ishqoriy metallar qatorini belgilang:

- a) Li, Be, Na, Mg, Cu, Ag;
- b) Be, Mg, Ca, Sr, Ba, Ra;
- c) Na, Mg, Al, K, Ca, Sc;
- d) Cs, Na, Rb, Li, K, Fr.

32. I guruhning yonaki guruhchasini qanday elementlar tashkil etadi?

- a) Ag, Au, Cu;
- b) Cu, Zn, Cd;

c) Zn, Cd, Hg; d) Ag, Au, Hg.

33. Quyidagi fikrlarning qaysi biri to‘g‘ri?

- a) asosiy guruhcha faqat katta davr elementlaridan tashkil topgan;  
b) yonaki guruhchani kichik davrlarining elementlari tashkil etadi;  
c) elementlarning tartib raqamiga asosan ulardagi valent elektronlar sonini aniqlash mumkin;  
d) asosiy guruhcha elementlarining tashqi energetik qavatidagi elektronlar soni ularning guruh raqamiga teng.

34. Kichik davrlarda – elementlarning nisbiy atom massasi ortib borishi bilan ularning:

- 1) metallik xossasi kichrayib boradi; 2) metallmaslik xususiyatlari susaya boshlaydi; 3) tashqi elektron pog‘onasida elektronlar soni kamayib boradi; 4) metallik xossalari susayib, metallmaslik xossalari esa kuchaya boshlaydi; 5) uchuvchan vodorodli birikmalarida valentliklari IV dan I gacha kamayadi; 6) atom radiuslari asta-sekin ortib borib, davr so‘ngida eng maksimal holatni egallaydi; 7) yuqori oksidlarida valentliklari ortib boradi:

- a) 1, 3, 5; b) 4, 5, 7;  
c) 2, 6, 7; d) 3, 5, 6.

35. Asosiy guruhchalarda qanday elementlar joylashadi?

- a) faqat kichik davrlarning elementlari;  
b) faqat katta davrlarning elementlari;  
c) ham kichik, ham katta davrlarning elementlari;  
d) tashqi elektron pog‘onasi to‘lgan elementlar.

36. IV va V guruhlardagi elementlardan qaysilari vodorod bilan havoga nisbatan yengil birikmalar bosil qiladi?

- a) uglerod, azot; b) kremniy, fosfor;  
c) uglerod, fosfor, kremniy; d) azot, fosfor, kremniy.

37. VI guruhga taalluqli elementning oksidlaridan biri tarkibida 50 foiz kislorod bo‘ladi. Shu elementning nomini toping:

- a) xrom; b) selen;  
c) molibden; d) oltingugurt.

38. 1,11 g ishqoriy metalliga suv ta’sir ettirilganda 0,16 g vodorod ajralib chiqadi. Bu qaysi metalligini toping:

- a) fransiy; b) litiy;  
c) seziy; d) natriy.

## KIMYO fanidan mavzulashhtirilgan sinov savollar i (javoblari bilan)

**39. Berilliyl, magniy va kalsiy atomlarining tuzilishiga qanday umumiylilik bor?**

- a) umumiylilik yo'q;
- b) hammasi tipik metallar;
- c) II guruhning qo'shimcha guruhchasiga qo'shilgan;
- d) tashqi energetik pog'onasidagi valent elektronlar soni bir xil.

**40. Quyidagi elementlardan qaysi biri kuchli metallmaslik xossasini namoyon qiladi?**

- a) kislorod;
- b) xlor;
- c) ftor;
- d) fosfor.

**41. Asosiy guruhda atomlari eng yuqori valentlik namoyon qiluvchi birkma hosil qilganda kimyoviy bog'lanish ularning qaysi elektronlari ishtirot etadi?**

- a) tashqi energetik pog'onadagi faqat juftlashgan elektronlari;
- b) tashqi energetik pog'onadagi faqat juftlashmagan tooq elektronlari;
- c) tashqi va tashqaridan oldingi energetik pog'onadagi hamma elektronlari;
- d) tashqi energetik pog'onadagi hamma elektronlari.

**42. Davriy sistemada II davr metallmaslari o'zlarining yuqori oksidlarida qanday oksidlanish darajasini hosil qiladi?**

- a) hammasi +2;
- b) o'zgaruvchan;
- c) guruh raqamiga teng manfiy;
- d) ftor -1, qolganlari guruh raqamiga teng musbat oksidlanish darajasini hosil qiladi.

**43. D.I.Mendeleyev kimyoviy elementlar davriy sistemasini tuzishda elementning qaysi belgisini asos qilib olgan?**

- a) elementlarning tabiatda tarqalishini;
- b) zichligini;
- c) suyuqlanish temperaturasini;
- d) atom massasini.

**44. Kichik va katta davrlar bir-biridan nima bilan farq qiladi?**

- a) kichik davrda faqat s- va p-elementlar, katta davrlarda esa bundan tashqari d- va f- elementlar joylashgan;
- b) kichik davrlarda faqat s-elementlar tashkil etadi;
- c) kichik davrlarda faqat p-elementlar joylashgan;

**B. ELMURADOV, Yu. G. MAHMUDOV, Z. J. XOLMIRZAYEV**

d) katta davrlarda d- elementlar joylashgan.

**45. Quyidagi jarayonlarning qaysi birida sun'iy kimyoviy elementlar hosil bo'ladi?**

- a) birikish; b) yadro;  
c) almashinish; d) biokimyoviy.

**46. Mg, C, P, Br atomlaridagi valent elektronlarning maksimal sonini aniqlang, javob elementlarining berilish tartibida ko'rsatilsin:**

- a) 2, 2, 3, 1; b) 1, 4, 6, 7;  
c) 2, 4, 5, 7; d) 2, 3, 5, 7.

**47. O'zgarmas valentlik namoyon qiluvchi elementlar guruhini belgilang:**

- a) H, S, P; b) Na, C, O;  
c) K, P, Cl; d) F, Li, Al.

**48. Element atomlari xossalaring davriy o'zgarishiga sabab nima?**

- a) atomning yadro zaryadi;  
b) nisbiy atom massasi;  
c) atomdagi energetik pog'onalar soni;  
d) neytronlar va protonlarning umumiy soni.

**49. Kimyoviy elementning ta'rifi qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- a) yadro zaryadi bir xil, elektronlar soni har xil bo'lgan;  
b) yadro zaryadi bir xil, elektronlar va neytronlar soni har xil;  
c) yadro zaryadining qiymati bir xil bo'lgan;  
d) yadro zaryadi har xil, elektronlar soni bir xil.

**50. Davriy sistemadagi asosiy guruhcha elementlarining metallmaslik xossalari guruhchaning qaysi joyida juda kam ifodalangan?**

- a) guruhchaning pastki qismida; b) yuqori qismida;  
c) eng pastki joyning yuqori qismlarida; d) o'rtaida.

**51. Davriy sistemaning IV davrida nechta element bor?**

- a) 2; b) 8;  
c) 18; d) 32.

**52. Vodorodning IV guruh asosiy guruhcha elementlari bilan hosil qilgan birikmasida vodorodning massa ulushi 12,5 foizni tashkil etadi, shu birikmaning eng oddiy formulasini aniqlang:**

- a)  $\text{SiH}_4$ ; b)  $\text{CH}_4$ ;  
c)  $\text{GeH}_4$ ; d)  $\text{SnH}_4$ .

## KIMYO fanidan mayzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

53. Quyidagi elementlardan qaysi biri vodorodli birikmalarida hamda yuqori oksidlarida bir xil valentlik qiymatini namoyon qiladi?

- a) mishyak;
- b) selen;
- c) xlor;
- d) uglerod.

54. Ushbu elementlarning qaysi birlarining yuqori oksidlari formula  $\text{R}_2\text{O}_5$  ko'rinishga ega:

- 1) oltingugurt; 2) xlor; 3) mishyak; 4) berilliyl; 5) fosfor;
- 6) kreminiy; 7) temir; 8) kalsiy; 9) azot; 10) natriy.
- a) 4, 7, 10;
- b) 3, 5, 9;
- c) 1, 2, 6;
- d) 5, 6, 9.

55. Quyidagi element atomi yadrosidagi proton va neytronlar sonini aniqlang:

- a) 110 p, 78 n;
- b) 78 p, 188 n;
- c) 78 p, 78 n;
- d) 78 p, 110 n.

56. 4 d – pog'onachada hammasi bo'lib qancha elektron joylashishi mumkin?

- a) 32;
- b) 2;
- c) 9;
- d) 10.

57. Qaysi qatorda elementlar atom radiuslari ortib borishi tartibida joylashtirilgan?

- a) F, Cl, Br, I;
- b) Te, Se, S, O;
- c) B, C, F, O;
- d) Mg, Al, Si, P.


58. Brom atomini ( $A_2 = 80$ ) yadrosida 45 ta neytron bor. Elementlar jadvalidan foydalanmasdan bromning tartib raqamini aniqlang:

- a) 45;
- b) 80;
- c) 60;
- d) 35.

59. Izotoplar nima bilan bir-biridan farq qiladi?

- a) yadro zaryadi bilan;
- b) protonlar soni bilan;
- c) oksidlanish darajasi bilan;
- d) neytronlar soni bilan farq qiladi.

60. Quyidagi izotoplar yadrolarining tarkibini belgilang:



- a) 14p, 14e, 28n; 14p, 14e, 36n;
- b) 14p, 28e, 28n; 14p, 35e, 35n;
- c) 14p, 14e, 14n; 14p, 14e, 21n;
- d) 28p, 14e, 14n; 35p, 14e, 14n.

**B. ELMURADOV, Yu. G. MAHMUDOV, Z. J. XOLMIRZAYEV**

**61. Normal (qo‘zg‘almagan) holatda quyidagi atomlarning qaysi birida toq holatdagi elektronlar soni ko‘p bo‘ladi?**

- a) natriy; b) fosfor;  
c) kaliy; d) kalsiy.

**62. Nima uchun davrlarda chapdan o‘ngga o‘tgan sari elementlarning metallik xossalari susayib, metallmaslik xossalari kuchayib boradi?**

- a) tashqi elektron qavati to‘lishiga yaqinlashganligi uchun;  
b) tashqi elektron qavatdagi elektronlar soni ortib borganligi uchun;  
c) atomdagи umumiy elektronlar soni ko‘payganligi uchun;  
d) valentlikning ortganligi uchun.

**63. Tartib raqami 11 elementining gidroksidi bilan 14 va 16 elementlarning yuqori oksidlari o‘zaro reaksiyaga kirishganda qanday moddalar hosil bo‘lishini aniqlang:**

- a)  $\text{Na}_2\text{SiO}_3$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ; b)  $\text{Na}_2\text{SO}_3$ ,  $\text{NaHSiO}_3$ ;  
c)  $\text{Na}_2\text{SiO}_3$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_3$ ; d)  $\text{Na}_2\text{SiO}_3$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ .

**64. III davrda joylashgan, tashqi elektron qavatida uchta elektroni bo‘lgan element qaysi?**

- a) magniy; b) oltingugurt;  
c) fosfor; d) aluminiy.

**65. Elementlarning xossalari asosiy guruhchalarda atom massalari ortib borishi bilan qanday o‘zgaradi?**

- a) metallik va metallmaslik xossalari susayadi;  
b) metallik xossalari kuchayadi, metallmaslik xossalari susayadi;  
c) o‘zgarish kuzatilmaydi;  
d) metallik va metallmaslik xossalari kuchayadi.

**66. Atom tuzilishi quyidagicha bo‘lgan elementlar hosil qilgan birikmaning nomini toping. 2 e, 8 e, 18 e, 2 e va 2 e, 8 e, 7 e:**

- a) kalsiy xlorid bromid; b) magniy ftorid;  
c) rux xlorid; d) mis (II).

**67. Quyidagi elementlar guruhidan qaysi biri faqat metallmaslardan tarkib topgan?**

- a) K, O, S; b) Na, H, S;  
c) H, S, Cl; d) N, K, O.

**68. Qaysi element uchun elektronlarning taqsimlanishi quyidagi ko‘rinishga ega? 2 e, 8 e, 5 e. u qanday xossani namoyon qiladi, uning**

## JMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

**yuqori oksidining formulasi qanday ko‘rinishga ega?**

- a) oltingugurt, metallmas,  $\text{RO}_3$ ;      b) azot, metallmas,  $\text{R}_2\text{O}_5$ ;
  - c) uglerod, metallmas,  $\text{RO}_2$ ;      d) fosfor, metallmas,  $\text{R}_2\text{O}_5$ .
- 69. Yadrosida 9 ta proton va 10 ta neytron bor elementni belgilang:**
- a) fosfor;
  - b) kalsiy;
  - c) ftor;
  - d) kaliy.

**70. Xlor atomining elektron formulasini belgilang:**

- a)  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^3$ ;
- b)  $1s^1 2s^2 2p^6 3s^2 3p^5$ ;
- c)  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2$ ;
- d)  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6$ .

**71. D.I. Mendeleyev davriy qonunni tuzishda elementining nimasini asos qilib olgan?**

- a) kimyoviy va fizik xossalari;
- b) kimyoviy xossalari va tabiatda uchrashishini;
- c) kimyoviy xossalari va ishlatalishini;
- d) atom massasini asos qilib olgan.

**72. Quyida keltirilgan ta’riflarning qaysi biri valentlik tushunchasining mohiyatini to‘la va to‘g‘ri ifodalaydi?**

- a) ayni element atomining boshqa element atomlarini o‘ziga biriktirib olishi;
- b) ayni element atomining kimyoviy bog‘ hosil qilishda ishtirot etgan toq elektronlar soni;
- c) ayni element atomining kimyoviy bog‘ hosil qilishda ishtirot etgan toq elektronlar va umumiy orbita soni;
- d) ayni element atomining hosil qilgan kimyoviy bog‘lanishlar soni.

**73. Kremniy elementi davriy jadvalda nechanchi davrda joylashgan?**

- a) II;
- b) III;
- c) V;
- d) I.

**74. Elektron konfiguratsiyalardan qaysi biri mishyak elementi uchun taalluqli?**

- a)  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 4s^2$ ;
- b)  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^6 4s^2$ ;
- c)  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^{10} 4s^2 4p^1$ ;
- d)  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^{10} 4s^2 4p^3$ .

**75.  $\text{Fe}^{2+}$  ionining elektron holati qanday ko‘rinishga ega?**

- a)  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 4s^2$ ;
- b)  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^5$ ;
- c)  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^4 4s^2$ ;
- d)  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^6$ .

**76. Element atomining (d) – pog‘onachasida 7 ta elektron bo‘lganda**

B. ELMURADOV, Yu. G. MAHMUDOV, Z. J. XOLMIRZAYEV

juslashmagan elektronlarning maksimal soni nechta bo'lishi mumkin?

- a) 10;
- b) 5;
- c) 7;
- d) 3.

77. 3 s – orbitalni to'ldirishi mumkin bo'lgan elektronlarning maksimal soni qanchaga teng?

- a) 1;
- b) 2;
- c) 6;
- d) 8.

78. 2 p-pog'onachani to'ldirishi mumkin bo'lgan elektronlarning maksimal soni qanchaga teng?

- a) 1;
- b) 2;
- c) 6;
- d) 8.

79. 3 d – pog'onachada hammasi bo'lib qancha elektron bo'lishi mumkin?

- a) 2 e<sup>-</sup>;
- b) 6 e<sup>-</sup>;
- c) 18 e<sup>-</sup>;
- d) 10 e<sup>-</sup>.

80. Quyidagi orbitallar ifodasidan qaysi biri noto'g'ri?

- a) 2 s, 2 p;
- b) 2 p, 3 d;
- c) 1 p, 2 d;
- d) 1 s, 2 p.

### *VII bob. KIMYOVIY BOG'LANISH. MODDALARNING TUZULISHI*

1. Qaysi modda molekulasida kimyoviy bog'lanishlar soni 14 ta?

- a)  $\text{KClO}_4$ ;
- b)  $\text{H}_3\text{PO}_4$ ;
- c)  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ ;
- d)  $\text{KMnO}_4$ .

2. Quyidagi qatorlarning qaysi birida molekulalardagi kimyoviy bog'lanish qutbliligi yozilgan tartibda ortib boradi?

- a) HF,  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{NH}_3$ ,  $\text{CH}_4$ ;
- b)  $\text{NH}_3$ ,  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{CH}_4$ , HF;
- c)  $\text{NH}_3$ , HF,  $\text{CH}_4$ ,  $\text{H}_2\text{O}$ ;
- d)  $\text{CH}_4$ ,  $\text{NH}_3$ ,  $\text{H}_2\text{O}$ , HF.

3. Quyidagi keltirilgan moddalardan qaysi birida kimyoviy bog'lanishlar soni 8 ga teng:

- a) bertolle tuzi;
- b) sulfit kislota;
- c) o'rta fosfat kislota;
- d) nitrat kislota.

4. Davrlarda elementlarning ionlanish energiyasi qanday o'zgaradi?

- a) davrda ionlanish energiyasi o'zgarmaydi;

## KIMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

- b) davrda ionlanish energiyasi chapdan o'ngga qarab kamayib boradi;
- c) davrda ionlanish energiyasi chapdan o'ngga qarab ortib boradi;
- d) davrda ionlanish energiyasi o'ngdan chapga qarab ortib boradi.

5. Qaysi qatorda elementlar elektromanfiyliklari ortib borishi tartibida joylashtirilgan?

- a) Al, P, N, F;
- b) C, Si, P, N;
- c) Al, B, Si, C;
- d) S, P, Si, Al.

6. Davrlarda chapdan o'ngga o'sgan sari elementlarning elektromanfiyligi qanday o'zgaradi?

- a) kamayib boradi;
- b) o'zgarmaydi;
- c) avval kamayib, so'ngra orta boshlaydi;
- d) ortib boradi.

7. Davr ichida elementlarning tartib raqами ortishi bilan, uning:

- a) atom radiusi va elektrmanfiyligi ortadi;
- b) atom radiusi kamayib, elektrmanfiyligi esa ortadi;
- c) atom radiusi ortadi, elektrmanfiyligi esa kamayadi;
- d) atom radiusi va elektrmanfiyligi kamayadi.

8. Quyidagi moddalarning qaysi biridagi bog'lanish qutbli xarakteriga ega?

- 1) O<sub>2</sub>; 2) HCl; 3) P<sub>3</sub>; 4) N<sub>2</sub>; 5) H<sub>2</sub>O; 6) CO<sub>2</sub>; 7) H<sub>2</sub>; 8) Cl<sub>2</sub>;
- a) 1, 2, 6;
- b) 3, 5, 7;
- c) 2, 5, 6;
- d) 6, 7, 8.

9. Quyidagi moddalarning qaysi birida kimyoviy bog'lanishlar soni 10 ga tengligini aniqlang:

- a) K<sub>2</sub>Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub>;
- b) P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>;
- c) K<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>;
- d) K<sub>3</sub>PO<sub>4</sub>.

10. Qaysi birikmaning molekulasida bog'lanish qutbliligi eng kamligini belgilang:

- a) H<sub>2</sub>O;
- b) HJ;
- c) HCl;
- d) HF.

11. Kimyoviy bog'lanish hosil bo'lishida III davr elementlarining qaysi elektron qavatidagi elektronlar ishtirop etadi?

- a) I;
- b) 2, 3;
- c) 1, 2;
- d) 3.

12. Vodorod va xlor molekulalarida atomlar orasidagi bog'lanish qaysi energetik pog'onachadagi elektronlar hisobiga bo'ladi?

**B. FILMURADOV, Yu. G. MAHMUDOV, Z. J. XOLMIRZAYEV**

- a)  $1s, 3s$ ; b)  $2s, 2p$ ;  
c)  $1s, 3d$ ; d)  $1s, 3p$ .

**13. Quyidagi molekulalarning qaysi birida ikkala atom orasidagi bog'lanish elektronlarning uchta justi tusayli hosil bo'lgan?**

- a)  $Cl_2$ ; b)  $N_2$ ;  
c)  $O_2$ ; d)  $H_2$ .

**14. Formulalari:  $HCl$ ,  $CO_2$ ,  $NH_3$ ,  $OF_2$  bo'lgan birikmalarda umumiy elektron juftlar qaysi elementning atomlariga tomon siljigan?**

- a) Cl, O, N, O; b) Cl, O, H, F;  
c) Cl, O, N, F; d) H, C, N, F.

**15. V guruhning bosh guruhchasidagi elementlarda azotdan vismutga o'tgan sari elementlarning elektromansiyligi qanday o'zgaradi?**

- a) kamayadi;  
b) ortadi;  
c) o'zgarmaydi;  
d) IV davrgacha kamayadi, so'ng orta boshlaydi.

**16. Qaysi birikmaning molekulasida bog'lanish qutbliligi eng ko'p ifodalangan?**

- 1)  $H_2S$ ; 2)  $Cl_2$ ; 3)  $CH_4$ ; 4)  $PH_3$ ; 5)  $HCl$ :  
a) 1; b) 5;  
c) 3; d) 2.

**17. Quyidagi:  $H_2SO_4$ ,  $HCN$ ,  $H_3PO_4$ ,  $PCl_5$  – moddalarning har biridagi elektromansiyligi eng katta bo'lgan elementni belgilang:**

- a) S, N, O, Cl; b) O, N, P, Cl;  
c) O, N, O, P; d) O, N, O, Cl.

**18. Ion bog'lanish qanday element atomlari orasida hosil bo'ladi?**

- a) elektromansiyliklari o'zaro teng bo'lgan bir xil element atomlari orasida;  
b) elektromansiyliklari ozgina farq qiladigan har bir element atomlari orasida;  
c) elektromansiyliklari o'zaro teng bo'lgan har xil element atomlari orasida;  
d) elektromansiyliklari bir-biridan keskin farq qiladigan element atomlari orasida.

**19. Quyidagi moddalari:  $MgCl_2$ ,  $H_2O$ ,  $CO_2$ ,  $Na_2B$  – molekulasida**

## KIMYO fanidan navzutushtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

elektronlar justi qaysi element atomi tomoniga siljigan, bu moddalar atomlari orasidagi kimyoviy bog'lanish turi qanday?

- a) Cl – ionli, O – kovalent, C – ionli, Na – ionli;
- b) Cl – kovalent, O – kovalent, O – kovalent, S – kovalent;
- c) Cl – ionli, O – kovalent, O – kovalent, S – ionli;
- d) Mg – ionli, H – kovalent, O – kovalent, N – kovalent.

20. Galogenlarning tartib raqami ortib borishi bilan, vodorod galogenidlarning: HF, HCl, HBr, HJ molekulalarida kimyoviy bog'lanishning qutbliligi qanday o'zgarishini belgilang:

- a) ortadi; b) o'zgarmaydi;
- c) III davrgacha kamayadi, keyin ortadi; d) kamayadi.

21. Ion bog'lanishli birikmalarni belgilang:

- 1) NH<sub>3</sub>; 2) SO<sub>3</sub>; 3) NaJ; 4) CO<sub>2</sub>; 5) CaCl<sub>2</sub>;
- 6) PH<sub>3</sub>; 7) K<sub>2</sub>S; 8) NaCl; 9) NO; 10) CCl<sub>4</sub>;
- a) 2, 4, 6, 8; b) 1, 3, 5, 7;
- c) 3, 7, 9, 10; d) 3, 5, 7, 8.

22. Ca<sup>2+</sup> ionining elektron formulasini belgilang:

- a) 1s<sup>2</sup>2s<sup>2</sup>2p<sup>6</sup>3s<sup>2</sup>3p<sup>6</sup>;
- b) 1s<sup>2</sup>2s<sup>2</sup>2p<sup>6</sup>3s<sup>2</sup>3p<sup>6</sup>4s<sup>2</sup>;
- c) 1s<sup>2</sup>2s<sup>2</sup>2p<sup>6</sup>3s<sup>2</sup>3p<sup>6</sup>4s<sup>2</sup>4p<sup>1</sup>;
- d) 1s<sup>2</sup>2s<sup>2</sup>2p<sup>6</sup>3s<sup>2</sup>3p<sup>5</sup>.

23. Atomar (H) molekular (H<sub>2</sub>) vodorodning oksidlanish darajasi nechaga teng?

- a) 0, -1; b) -1, 0;
- c) 0, +1; d) 0, 0.

24. SO<sub>2</sub> kislород bilan oksidlanish oltingugurt (VI) oksidiga aylanishida oltingugurtning oksidlanish darajasi qanday o'zgaradi?

- a) + 6 dan + 4 ga; b) -4 dan + 6 ga;
- c) + 4 dan + 6 ga; d) + 4 dan -2 ga.

25. Formulaari: CH<sub>4</sub> va CCl<sub>4</sub>, bo'lgan birikmalardagi uglerodning oksidlanish darajalari qanchaga tengligini aniqlang:

- a) + 4, + 7; b) -4, + 4;
- c) + 4, -4; d) + 1, + 4.

26. Quyidagi fikrlarning qaysi biri to'g'ri?

- a) elektromansiylik davrlarda chapdan o'ngga o'tishida kamayadi;
- b) davrning raqami elementning maksimal valentligini ko'rsatadi;
- c) metallik xossa VII guruh asosiy guruhcha elementlarida yaqqol

## B. ELMURADOV, Yu. G. MAHMUDOV, Z. J. XOLMIRZAYEV

ifodalangan;

d) har qanday birikmada elementlar oksidlanish darajalarining algebrayik yig'indisi nolga teng.

**27. Ushbu birikmadagi har bir elementning oksidlanish darajasini aniqlang: BaMnO<sub>4</sub>.**

- |                |                |
|----------------|----------------|
| a) +2, +7, -2; | b) -2, +6, +2; |
| c) +2, -4, +2; | d) +2, +6, -2. |

**28. Vodorod peroksid (H<sub>2</sub>O<sub>2</sub>)dagi vodorod bilan kislородning oksidlanish darajasini hamda valentliklarini belgilang:**

- |                   |                   |
|-------------------|-------------------|
| a) +1, I; -2, II; | b) +1, I; -1, II; |
| c) +2, I; -2, II; | d) 0, I; 0, II.   |

**29. II davr elementlarining oksidlanish va qaytarilish xossalari davrda chapdan o'ngga tomon qanday o'zgaradi?**

- |                        |                      |
|------------------------|----------------------|
| a) kamayadi, ortadi;   | b) ortadi, kamayadi; |
| c) kamayadi, kamayadi; | d) ortadi, ortadi.   |

**30. Kovalent qutbsiz bog'lanishli birikmalarni belgilang:**

- |   |                 |
|---|-----------------|
| 1) H <sub>2</sub> O; 2) F <sub>2</sub> ; 3) FeCl <sub>3</sub> ; 4) Al <sub>4</sub> C <sub>3</sub> ; 5) O <sub>2</sub> ; |                 |
| 6) NH <sub>3</sub> ; 7) Ca <sub>3</sub> P <sub>2</sub> ; 8) H <sub>2</sub> ; 9) N <sub>2</sub> ; 10) OF <sub>2</sub> ;  |                 |
| a) 3, 6, 8, 10;   | b) 1, 3, 5, 7;  |
| c) 2, 5, 8, 9;  | d) 4, 7, 8, 10. |

**31. Element atomning elektron berish jarayoni nima deyiladi?**

- |                   |                                     |
|-------------------|-------------------------------------|
| a) neytrallanish; | b) oksidlanish;                     |
| c) parchalanish;  | d) qaytarilish reaksiyasi deyiladi. |

**32. Quyidagi reaksiyalarining qaysi biri oksidlanish-qaytarilish reaksiyasiga misol bo'la oladi?**

- |   |   |
|---|---|
| a) O <sub>2</sub> +2H <sub>2</sub> → 2H <sub>2</sub> O; | b) CaCO <sub>3</sub> → CaO + CO <sub>2</sub> ;                                    |
| c) NaO + H <sub>2</sub> O → 2NaOH;                      | d) BaCl <sub>2</sub> + H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> → BaSO <sub>4</sub> + 2HCl. |

**33. Atom kristall panjaraga ega moddalar qanday xususiyatlarga ega?**

- |  |
|--|
| a) suvda to'liq eriydigan, kristall holdagi oq rangli moddalar;                          |
| b) agregat holati suyuq bo'lib, suvda eriydigan moddalar;                                |
| c) kristall panjara tugunlarida molekulalar joylashgan bo'lib, gazsimon holatda bo'ladi; |
| d) oddiy sharoitda qattiq agrigat holatga ega, qiyin suyuqlanadi, amalda suvda erimaydi. |

**34. IV guruh metallmaslari vodorod bilan H<sub>2</sub>R tarkibli birikma losil**

## KIMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

qiladi. Bu birikmalarda metallmaslarning oksidlanish darajalari qanday qiymatga ega bo'lishini aniqlang:

- a) +6;
- b) -6;
- c) +2;
- d) -2.

35. Qaysi moddalarda atomlar o'zaro qutbli kovalent bog'lar vositasida bog'langan?

- 1)  $\text{Cl}_2$ ; 2)  $\text{HCl}$ ; 3)  $\text{O}_2$ ; 4)  $\text{NaCl}$ ; 5)  $\text{NH}_3$ ; 6)  $\text{H}_2$ :
- a) 1, 4; b) 3, 6;
- c) 2, 5; d) 3, 4.

36. Quyidagi keltirilgan fizik xossalardan qaysi biri qutbsiz kovalent bog'lanishli birikmalarga xos?

- a) past temperaturada qaynaydi; b) yuqori temperaturada qaynaydi;
- c) elektr tokini yaxshi o'tkazadi; d) suvda yaxshi eriydi.

37. Element izotoplarida nima bir xil bo'ladi?

- 1) yadro zaryadi — ; 2) neytronlar soni — ; 3) elektronlar soni — ;
- 4) protonlar soni — ; 5) atomlarning massa soni — :
- a) 2, 3, 4; b) 3, 4, 5;
- c) 2, 4, 5; d) 1, 3, 4.

38. Natriy ftorid qanday kristall panjaraga ega?

- a) atomli; b) ionli;
- c) molekular; d) metall.

39. Eng kam qutblangan kovalent bog'lanishli moddani belgilang:

- a)  $\text{H}_2\text{S}$ ; b)  $\text{NH}_3$ ;
- c)  $\text{H}_2\text{O}$ ; d)  $\text{PH}_3$ .


40. Quyidagilardan qaysilari oksidlanish jarayonini aks ettiradi?

- 1)  $\text{Fe}^\circ \rightarrow \text{Fe}^{+2}$ ; 2)  $\text{Cl}^{+5} \rightarrow \text{Cl}^{-1}$ ; 3)  $\text{S}^{+6} \rightarrow \text{S}^{+4}$ ; 4)  $\text{S}^{-2} \rightarrow \text{S}^\circ$ :
- a) 2, 3; b) 3, 4;
- c) 1, 4; d) 1, 3.

41. Oddiy moddalar orasida boradigan quyidagi reaksiyalarda qaysi element oksidlanishini aniqlang:

- 1)  $\text{S} + \text{O}_2 \rightarrow \text{SO}_2$ ; 2)  $\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \rightarrow 2\text{NH}_3$ ;
- 3)  $2\text{Al} + 3\text{J}_2 \rightarrow 2\text{AlJ}_3$ ; 4)  $\text{Cl}_2 + \text{H}_2 \rightarrow 2\text{HCl}$ :
- a) S, H, J, H; b) O, H, Al, Cl;
- c) S, H, Al, H; d) S, N, Al, H.

**42. Ushbu tenglama bilan ifodalangan reaksiyada qaysi element oksidlanishini va qaysi biri qaytarilishini belgilang:**



- a) Mn-oksidlanadi, O-qaytariladi; b) K-qaytariladi, Mn-oksidlanadi;  
c) K-qaytariladi, O-oksidlanadi; d) O-oksidlanadi, Mn-qaytariladi.

**43.  $\text{NH}_3 + \text{HCl} \rightarrow \text{NH}_4\text{Cl}$  hosil bo'lishida nima o'zgaradi?**

- a) azot atomining oksidlanish darajasi;  
b) vodorod atomining valentligi;  
c) xlor atomining oksidlanish darajasi va valentligi;  
d) vodorod atomining oksidlanish darajasi o'zgaradi.

**44. Quyidagi birikmalarning qaysi birida vodorod manfiy oksidlanish darajasiga ega?**

- a)  $\text{H}_2\text{O}$ ; b)  $\text{NaH}$ ;  
c)  $\text{H}_2\text{S}$ ; d)  $\text{HJ}$ .

**45. Elektron formulalarga asoslanib elementlarni elektromaniyliklari ortib borishi tartibida joylashtiring:**

- 1)  $1s^2 2s^1$ ; 2)  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^4$ ; 3)  $1s^2 2s^2 2p^6$ ; 4)  $1s^2 2s^2 2p^4$ :  
a) 3, 4, 2, 1; b) 2, 4, 3, 1;  
c) 1, 2, 3, 4; d) 1, 2, 4, 3.

**46. Ishqoriy metallarning gidridlari qanday tuzilishli birikmalarga kiradi?**

- a) atom; b) ion;  
c) amorf; d) metall.


**47. Uchuvchan va oson suyuqlanuvchan moddalar qanday kristall panjaraga ega bo'ladi?**

- a) metall; b) ionli;  
c) molekular; d) atom.

**48. Qotbsiz kovalent bog'lanish asosan:**

- a) turli metallmaslar orasida;  
b) metall va metallmaslar orasida;  
c) turli metallar orasida;  
d) bir xil metallmas atomlari orasida hosil bo'ladi.

**49. Quyidagi birikmalardagi xlorning oksidlanish darajasini aniqlang:**




- a) -1, -1, -1, -3; b) -1, -1, +5, +7;

## KIMYO fanidan marzulashlari bilan sinor savollari (jaroblari bilan)



- c)  $-1, +1, -1, +3$ ; d)  $+1, +1, -5, -7$ .

50. Quyidagi sxemaga asosan elementni aniqlang va sodir bo'lgan jarayoni belgilang:



- a) Mg, qaytarilish; b) Al, oksidlanish;  
c) Mg, oksidlanish; d) Ca, oksidlanish.

51. Quyidagi reaksiyalardan qaysi biri oksidlanish – qaytarilish reaksiyasi?




- a) 1, 2; b) 2, 3;  
c) 1; d) 2.

52. Qanday reaksiyalarga oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarini deyladi?

- a) ionli yoki atomlar tomonidan elektron olishga;  
b) kimyoviy reaksiyalarda element atomlarining oksidlanish darajalarining o'zgarishi bilan boradigan jarayonga;



- c) elektronlarning bir atomdan ikkinchisiga tomon siljishiga;  
d) atom yoki ion tomonidan elektron berish jarayoniga aytildi.

53. Quyidagi reaksiyada kafiy qanday vazifani bajaradi?



- a) qaytaruvchi; b) oksidlovchi;  
c) metallmas; d) elektromansiy element vazifasini bajaradi.

54. Quyidagi reaksiyalarning qaysilari oksidlanish – qaytarilish reaksiyalariga misol bo'ladi?



t°

t°



- a) 1, 3; b) 2, 4;  
c) 3, 5; d) 2, 5.

55. Qaysi molekulada elementning valentligi birga va oksidlanish darajasi nolga teng?

- a)  $\text{Cl}_2$ ; b) HF;  
c)  $\text{H}_2$ ; d)  $\text{NH}_3$ .

**56. Atomlar bir-biri bilan birikib, moddalar hosil bo'lishida kimyoviy bog'lanishning necha xil ko'rinishi mavjud bo'ladi?**

- a) 7;
- b) 5;
- c) 4;
- d) 3.

**57. Kimyoviy bog'lanish qanday vujudga keladi?**

- a) atomlar o'zaro birikkanda;
- b) valent elektronlar hisobiga;
- c) elektromanfiyligi bir-biridan keskin farq qilganda;
- d) elektromanfiyligi bir-biriga teng bo'lganda vujudga keladi.

**58. Ion bog'lanish qanday hosil bo'ladi?**

- a) elektromanfiyliklari bir xil bo'lgan atomlar o'zaro birikkanda;
- b) elektromanfiyliklari jihatidan bir-biridan u qadar keskin farq qilmaydigan; elementlarning atomlari o'zaro ta'sirlashganda;
- c) metallarning kristall panjarasida nisbatan erkin elektronlarning metall ionlari bilan o'zaro ta'sirlashuvi natijasida;
- d) elektromanfiyliklari jihatidan bir-biridan keskin farq qiluvchi atomlar o'zaro ta'sirlashganida hosil bo'ladi.

**59. Kovalent qutbsiz bog'lanish qanday hosil bo'ladi?**

- a) elektromanfiyliklari bir xil bo'lgan atomlar o'zaro birikkanda;
- b) elektromanfiyliklari jihatidan bir-biridan u qadar keskin farq qilmaydigan elementlarning atomlari o'zaro ta'sirlashganda;
- c) metallarning kristall panjarasida nisbatan erkin elektronlarning metall ionlari bilan o'zaro ta'sirlashuvi natijasida;
- d) elektromanfiyliklari jihatidan bir-biridan keskin farq qiluvchi atomlar o'zaro ta'sirlashganida hosil bo'ladi.

**60. Metall bog'lanish qanday hosil bo'ladi?**

- a) elektromanfiyliklari bir xil bo'lgan atomlar o'zaro birikkanda;
- b) elektromanfiyliklari jihatidan bir-biridan u qadar keskin farq qilmaydigan elementlarning atomlari o'zaro ta'sirlashganda;
- c) metallarning kristall panjarasida nisbatan erkin elektronlarning metall ionlari bilan o'zaro ta'sirlashuvi natijasida;
- d) elektromanfiyliklari jihatidan bir-biridan keskin farq qiluvchi atomlar o'zaro ta'sirlashganida hosil bo'ladi.

## KIMYO sanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

### VIII bob. GALOGENLAR


1. Massasi 8 g bo'lgan gelyida nechta atom bor?

- a)  $9,03 \cdot 10^{23}$ ;      b)  $12,04 \cdot 10^{24}$ ;  
c)  $1,2 \cdot 10^{21}$ ;      d)  $6,02 \cdot 10^{21}$ .

2. Moddalarning qaysi biriga konsentrangan xlorid kislota ta'sir ettirilganda xlor hosil bo'ladi?

- a)  $\text{CrCl}_3$ ;      b)  $\text{KMnO}_4$ ;  
c)  $\text{CaCl}_2$ ;      d) Al.

3. Quyidagi reaksiya natijasida qanday moddalar hosil bo'ladi?



- a)  $\text{NaF}$ ;      b)  $\text{NaF}, \text{H}_2\text{O}, \text{OF}_2$ ;  
c)  $\text{NaF}, \text{H}_2\text{O}, \text{OF}_2, \text{Na}_2\text{O}$ ;      d)  $\text{NaF}, \text{H}_2\text{O}, \text{OF}_2, \text{Na}_2\text{O}, \text{O}_2$ .

4. 5,6 g temir kukuni bilan 3 l xlor (n.sh.da) reaksiyaga kirishganda necha g yangi mahsulot hosil bo'ladi?

- a) 8,6;      b) 9,2;  
c) 14,5;      d) 10,8.

5. Quyidagi reaksiyalarning qaysi birida brom hosil bo'ladi?

- a)  $\text{H}_2\text{SO}_4$  (kons) +  $\text{HBr} \rightarrow$ ;      b)  $\text{Cl}_2 + \text{Br} \rightarrow$ ;  
c)  $\text{FeBr}_3 + \text{HBr} \rightarrow$ ;      d)  $\text{Cr}_2\text{O}_3 + \text{HBr} \rightarrow$ .

6. Massasi 7 g temir kukuni n.sh.da xlorning qanday hajmi (l) bilan to'la reaksiyaga kirishadi?

- a) 4,0;      b) 4,2;  
c) 5,0;      d) 5,4.

7. Quyidagi reaksiya  $\text{KMnO}_4 + \text{HCl} \rightarrow \text{KCl} + \text{MnCl}_2 + \text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O}$  tenglamasining o'ng va chap tomonlaridagi koefitsiyentlar yig'indisini toping:

- a) 26;      b) 28;  
c) 32;      d) 35.

8. Konsentrangan xlorod kislota bilan quyidagi moddalarning qaysi biri reaksiyaga kirishganda xlor hosil bo'ladi?

- a)  $\text{CrCl}_3$ ;      b)  $\text{HNO}_3$ ;  
c)  $\text{H}_2\text{SO}_4$  (kons);      d)  $\text{KClO}_3$ .

9. Evidometrda 10 ml  $\text{H}_2$  bilan 10 ml  $\text{O}_2$  aralashmasi portlatildi, bunda qaysi gaz, qancha (ml) ortib qoladi?

**B. ELMURADOV, Yu. G. MAHMUDOV, Z. J. XOLMIRZAYEV**

- a) 4 ml H<sub>2</sub>; b) 4 ml O<sub>2</sub>;  
c) 5 ml H<sub>2</sub>; d) 5 ml O<sub>2</sub>.

**10. Galogen atomlarining tashqi energetik pog'onasining elektron formulasini belgilang:**

- a) ns<sup>2</sup>np<sup>7</sup>; b) ns<sup>7</sup>np<sup>3</sup>;  
c) 5 ns<sup>2</sup>np<sup>5</sup>; d) ns<sup>2</sup>np<sup>4</sup>.

**11. Quyidagi javoblarning qaysi biri to'g'ri va normal sharoitda qancha hajmni egallaydi?**

- a) 0,5 mol kislorod 11,2 l; b) 2 mol vodorod 22,4 l;  
c) 3 mol azot 44,8 l; d) 0,25 mol xlor 11,2.

**12. Laboratoriyada galogenlarning vodorodli birikmalari qanday olinadi?**

- a) vodorodni galogenlar bilan ta'sir ettirib;  
b) galogenlarning tuzlariga sulfat kislota ta'sir ettirib;  
c) galogen oksidlariga vodorod ta'sir ettirib;  
d) galogen tuzlariga nitrat kislota ta'sir ettirib olinadi.

**13. Normal sharoitda 16 g kislorod necha litr hajmni egallaydi?**

- a) 22,4; b) 11,2;  
c) 33,6; d) 5,6.

**14. Havadan yengil gazlarni belgilang:**

- 1) neon; 2) vodorod; 3) xlor; 4) metan; 5) kislorod;  
6) uglerod (II) oksidi; 7) geliy; 8) ammiak:  
a) 1, 2, 4, 5, 7; b) 2, 3, 4, 6, 7;  
c) 1, 3, 5, 7, 8; d) 2, 4, 6, 7, 8.

**15. Quyidagi fikrlarning qaysi biri ftor uchun taalluqli emas?**


- 1) eng elektromansiy; 2) eng aggressiv; 3) eng yengil; 4) eng aktiv;  
5) tashqi elektron qavati to'lgan; 6) molekulasini tashkil etuvchi atomlar  
o'zaro qutbsiz kovalent bog'lanish orqali bog'langan – element:

- a) 3, 5; b) 2, 6;  
c) 1, 4; d) 2, 3, 4.

**16. Reaksiyalarning qaysi birida xlor erkin holda ajralib chiqadi?**

- a) Cl<sub>2</sub> + Na →; b) HCl + Br<sub>2</sub> →;  
c) NaCl + H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> →; d) HCl + F<sub>2</sub> →.

**17. Quyidagi reaksiya uchun koefitsiyentlar tanlang:**



- a) 2–6–3–2–3; b) 3–5–3–3–4;

KIMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

c) 1-6-3-1-3;

d) 1-3-3-1-3.

18. 32 g oltingugurt xlor bilan reaksiyaga kirishishi natijasida 67,5 g  $S_2Cl_2$  hosil bo‘ladi. Reaksiyaga kirishgan xlorning miqdorini (mol) hisoblab toping:

a) 1,0;

b) 0,25;

c) 1,5;

d) 0,5.

19. Birikmalarining qaysi birida xlorning oksidlanish darajasi +3 ga teng?

a)  $HClO_4$ ;

b) HCl;

c)  $KClO_2$ ;

d)  $NaClO_3$ .

20. Quyidagi fikrlarning qaysi birlari noto‘g‘ri?

a) F-Cl-Br-J qatorida elementlarning metallmaslik xossalari susayib, atom radiuslari kichiklashib boradi;

b) galogenlar davriy sistemasining VII guruhining asosiy guruhchasinini tashkil etadi;

c) galogenlarning tashqi energetik pog‘onasi ...n  $s^2$ n  $p^1$  elektron konfiguratsiyasiga ega;

d) galogenlar molekulasida qutbsiz kovalent bog‘lanish mavjud.

21. Quyidagi elektron formulalardan qaysi biri xlor atomining tuzulishini ifodalaydi?

a)  $1s^2 2s^2 2p^5 3s^2 3p^5$ ;

b)  $1s^2 2s^2 2p^4 3s^2 3p^6$ ;

c)  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^7$ ;

d)  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^5$ .

22. 5,6 l xlor va 33,6 l vodorod xloriddan iborat gazlar aralashmasining massasini hisoblab (g) toping:

a) 80,5;

b) 67,25;

c) 72,5;

d) 54,75.

23. Laboratoriyada xlor quyidagi reaksiya yordamida olinadi:



Agar reaksiya uchun massasi 200 g 36,5 foizli HCl eritmasi olingan bo‘lsa, u holda qancha hajm (litr. N.sh.da) xlor ajralib chiqadi?

a) 5,6;

b) 11,2;

c) 2,8;

d) 22,4.

24. 1 litrning massasi 1,96 g ga tengligini hisobga olib, havodagi hajm ulushi 0,03 ni tashkil qilivchi  $100\text{ m}^3$  hajmdagi sinif xonasidagi uglerod (IV) oksidining massasini (g) hisoblab toping:

## B. ELMURADOV, Yu. G. MAHMUDOV, Z. J. XOLMIRZAYEV

- a) 5880; b) 10920;  
c) 8820; d) 4704.

**25. Ishqoriy metallar va galogenlarning tashqi elektron qavati to'lishi uchun nechta elektron kerak?**

- a) 1 e; 7 e; b) 1 e; 1 e;  
c) 7 e; 7 e; d) 7 e; 1 e.

**26. Qaysi guruhdagi hamma moddalar xlorid kislotasi bilan reaksiyaga kirishadi?**

- a) MgO, Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>, Fe; b) CaO, H<sub>2</sub>, BaO;  
c) Zn, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, BaCl<sub>2</sub>; d) Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub>, Cu.

**27. 7,3 g xlorid kislotasi bilan qancha mol kalsiy oksidi reaksiyaga kirishi shi mumkin, suvda qancha g tuz hosil bo'ldi?**

- a) 2; 55,5; b) 1; 55,5;  
c) 2; 111; d) 0,1; 11,1.

**28. 500 g suvda 2,24 l (n.sh.) vodorod xlorid eritilganda hosil bo'lgan eritmaning molyar konsentratsiyasini hisoblab toping:**

- a) 0,4; b) 0,2;  
c) 0,1; d) 4,0.

**29. Quyidagi reaksiyalardan qaysi biri oksidlanish — qaytarilish reaksiyasi ekanligini belgilang:**

- a) P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> + 3H<sub>2</sub>O → 2H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub>; b) H<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> → H<sub>2</sub>O + CO<sub>2</sub>;  
c) CuCl<sub>2</sub> + Fe → FeCl<sub>2</sub> + Cu; d) AgNO<sub>3</sub> + KCl → AgCl + KNO<sub>3</sub>.

**30. 14,2 g xlor n.sh.da qancha hajmni (l) egallaydi?**

- a) 2,24; b) 4,48;  
c) 3,36; d) 5,60.

**31. Gazning zichligini bilgan holda uning molyar massasini qaysi formula orqali topish mumkin?**

- a)  $M = \frac{m}{n}$ ; b)  $n = \frac{m}{M}$ ;  
c)  $V_m = \frac{n}{P}$ ; d)  $M = 22,4 \cdot P$ .

**32. Gazlarni nisbiy molekular massalari ortib borishi tartibida joylashtiring?**

- 1) xlor; 2) kislород; 3) azot; 4) vodorod:  
a) 4, 3, 2, 1; b) 4, 2, 3, 1;  
c) 4, 3, 2, 1; d) 1, 2, 3, 4.

## KIMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

33. 5,6 l ammiakning ( $\text{NH}_3$ ) massasini (g) hisoblab toping:

- a) 4,00; b) 4,25;  
c) 3,75; d) 5,0.

34. Quyidagi fikrlardan qaysi birlari galogenlar uchun taaliqli?

1) tashqi energetik pog'onasida 8 ta elektron bor; 2) oksidlovchilik xususiyati atom radiuslari kuchayishi bilan qonuniy ravishda ortib boradi;  
3) molekulalari ikki atomdan iborat; 4) kuchli qaytaruvchilar; 5) kislород bilan hosil qilgan birikmalarida fitordan tashqari hammasi musbat oksidlanish darajasini namoyon qiladi; 6) atomlarda ikkitadan juftlashmag'ul elektronlari bo'ladi:

- a) 1, 2, 3; b) 2, 3, 5;  
c) 3, 4, 5; d) 2, 4, 6.

35. Laboratoriyada vodorod xlорид qaysi usulda olinadi?

- a) vodorodni xlorda yondirish yo'li bilan;  
b) gipoklorid  $\text{HClO}$  kislotani parchalab;  
c) natriy xlоридга konsentrланган sulfat kislotasi ta'sir ettirish orqali;  
d) osh tuziga vodorod bromid ta'sir ettirish yo'li bilan olinadi.

36. Quyidagi birikmalardagi xlоринга oksidlanish darajasini aniqlang:

- 1)  $\text{MgCl}_2$ ; 2)  $\text{CaCl}_2$ ; 3)  $\text{KClO}_3$ ; 4)  $\text{HClO}_4$ :  
a) -1, -1, -1, -3; b) -1, -1, +5, +7;  
c) -1, +1, -1, +3; d) +1, +1, -5, -7.

37. Quyidagi sxemaga asosan elementni aniqlang va sodir bo'lgan jarayonni belgilang:  $2\text{e}, 8\text{e}, 2\text{e} \rightarrow 2\text{e}, 8\text{e}$ .

- a) Na, qaytarilish; b) Al, oksidlanish;  
c) Mg, oksidlanish; d) Ca, oksidlanish.

38. Quyidagi reaksiyalardan qaysi biri oksidlanish – qaytarilish reaksiyasidir?

- 1)  $\text{NaCl} + \text{AgNO}_3 \rightarrow \text{AgCl} + \text{NaNO}_3$ ;  
2)  $2\text{KClO}_3 \rightarrow 2\text{KCl} + 3\text{O}_2$ ;  
3)  $\text{H}_2\text{O} + \text{K}_2\text{O} \rightarrow 2\text{KOH}$ :

- a) 1; b) 3;  
c) 1, 2; d) 2.

39. Qanday jarayonga oksidlanish – qaytarilish deyiladi?

- a) ionlar va atomlar tomonidan elektr olishga;

b) kimyoiy reaksiyalarda element atomlarining oksidlovchilik darajasining

o'zgarish jarayoniga;

- c) elektronlarning bir atomdan ikkinchisiga tomon siljishiga;
- d) atom tomonidan elektron berish jarayoniga oksidlanish — qaytarilish deyiladi.

**40. Ftor boshqa galogenlardan farq qilib quyidagilarning qaysi biri bilan reaksiyaga kirishadi?**

- |                     |                       |
|---------------------|-----------------------|
| a) Na;              | b) P;                 |
| c) H <sub>2</sub> ; | d) SiO <sub>2</sub> . |

### ***IX bob. UMUMIY KIMYODAN***

**1. Quyidagi moddalardan qaysi biri oddiy modda?**

- |                      |                       |
|----------------------|-----------------------|
| a) NH <sub>3</sub> ; | b) NO <sub>2</sub> ;  |
| c) O <sub>3</sub> ;  | d) HNO <sub>3</sub> . |

**2. Quyidagi moddalardan qaysi biri murakkab modda hisoblanadi?**

- |                      |       |
|----------------------|-------|
| a) N <sub>2</sub> ;  | b) P; |
| c) H <sub>2</sub> S; | d) S. |

**3. Molekular moddalar qatorini ko'rsating:**

- |                      |                         |
|----------------------|-------------------------|
| a) qum, ohak, olmos; | b) suv, natriy, ko'mir; |
| c) suv, yod, shaker; | d) oltin, mis, geliy.   |

**4. Nomolekular moddalar qatorini ko'rsating:**

- |                                  |                          |
|----------------------------------|--------------------------|
| a) inert gazlar, olmos metallar; | b) suv, kaliy, spirt;    |
| c) koks, mis, farfor;            | d) qum, ohak tosh, gips. |

**5. Moddalarda kimyoviy xossalari o'zida saqlovchi zarracha qaysi.**

- |              |              |
|--------------|--------------|
| a) molekula; | b) elektron; |
| c) neytron;  | d) atom.     |

**6. Murakkab moddalar qatorini toping:**

- |  |   |
|--|---|
| a) H <sub>2</sub> O, O <sub>2</sub> , HCl, Cl <sub>2</sub> ;               | b) H <sub>2</sub> O <sub>2</sub> , H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> , HNO <sub>3</sub> , H <sub>2</sub> S <sub>2</sub> O <sub>3</sub> ; |
| c) H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> , Se, H <sub>2</sub> , SO <sub>3</sub> ; | d) N <sub>2</sub> , N <sub>2</sub> O <sub>5</sub> , NH <sub>3</sub> , O <sub>3</sub> .  |

**7. Quyidagi keltirilgan ta'riflarning qaysilarini atom tushunchasini to'g'ri ifodalaydi?**

- 1) Atom elementining kimyoviy xossalariini saqlab qoluvchi eng kichik zarrachadir; 2) Atom moddalarning kimyoviy xossalariini ifodalovchi eng kichik zarrachadir; 3) Atom musbat zaryadlangan yadro va elektronlardan iborat elektroneytral zarrachalardir:

## **KIMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)**

- a) 3;                              b) 1;  
  c) 2;                              d) 1 va 3.

**8. Quyidagi keltirilgan moddalarning qaysisi toza modda?**

- 1) dengiz suvi; 2) uglerod; 3) sut; 4) tuproq; 5) rux:  
  a) 1 va 3;                              b) 4 va 5;  
  c) 2 va 5;                              d) 1 va 2.

**9. Quyidagi javobning qaysini Avogadro qonuniga to‘g‘ri?**

1) normal sharoitda 2 mol vodorod 44,8 l hajmni egallaydi; 2) normal sharoitda 2 mol kislород 67,2 l hajmni egallaydi; 3) normal sharoitda 3 mol kislород 67,2 l hajmni egallaydi; 4) bir xil sharoitda teng hajmda gazlarning molekulalar soni teng bo‘ladi:

- a) 1;                                      b) 3;  
  c) 2 va 3;                                      d) 4.

**10. D.I Mendeleyev davriy qonunni kashf qilishda atomning qaysi xossalarni asos qilib olgan?**

1) kimyoviy xossalari va ishlatalishini; 2) kimyoviy va fizikaviy xossalarni; 3) kimyoviy xossalari va tabiatda uchrashini; 4) atom massasi va kimyoviy xossalarni:

- a) 1;                                      b) 2;  
  c) 3;    d) 4.

**11. Quyidagi keltirilgan oksidlarning qaysi biri kislotali oksid?**

- a)  $\text{SiO}_2$ ;                                      b)  $\text{Na}_2\text{O}$ ;  
  c)  $\text{CO}_2$ ;    d)  $\text{CaO}$ .

**12. Quyidagi kislotalarning qaysilarini nordon tuz hosil qiladi?**

- 1)  $\text{HCl}$ ; 2)  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ; 3)  $\text{HNO}_3$ ; 4)  $\text{H}_3\text{PO}_4$ ; 5)  $\text{HBr}$ :  
  a) 1, 4;    b) 2, 4;  
  c) 3, 5;    d) 1, 5.

**13. Quyidagi  $\text{H}_2 + \text{Cl}_2 = 2\text{HCl}$  reaksiyada bosim ortganda muvozanat qaysi tomonga siljlydi?**

- 1) chapga; 2) o‘ngga; 3) siljimaydi; 4) ikki tomonga:  
  a) 1;    b) 2;  
  c) 3;    d) 4.

**14. Kimyoviy muvozanatning siljishiga ta’sir etuvchi omillar nimalar?**

- 1) kimyoviy muvozanat siljishiga faqat temperatura;  
  2) kimyoviy muvozanat siljishiga faqat bosim;

- 3) kimyoviy muvozanat siljishiga faqat konsentratsiya;  
 4) kimyoviy muvozanat siljishiga barchasi ta'sir etadi:  
 a) 1;    b) 2;  
 c) 3;    d) 4.

15. Quyidagi reaksiya  $\text{CaCl}_2 + \text{Na}_2\text{CO}_3 = \text{CaCO}_3 + 2\text{NaCl}$  tenglamasida keltirilgan moddalarning qaysi biri dissotsialanmaydi:

- a)  $\text{CaCl}_2$ ;                                      b)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ;  
 c)  $\text{CaCO}_3$ ;                                      d)  $\text{NaCl}$ .

16. Laboratoriya azot qaysi moddadan olinadi?

- a)  $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ;                                      b)  $\text{NH}_4\text{NO}_2$ ;  
 c)  $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ ;                              d)  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$ .

17. Quyidagi reaksiyalardan qaysilari almashinish reaksiyasi hisoblanadi:

- 1)  $\text{Mg} + 2\text{HCl} = \text{MgCl}_2 + \text{H}_2$ ; 2)  $\text{MgO} + 2\text{HCl} = \text{MgCl}_2 + \text{H}_2$ ;  
 3)  $\text{Mg}(\text{NO}_3)_2 + 2\text{NaOH} = \text{Mg}(\text{OH})_2 + 2\text{NaNO}_3$ ;  
 4)  $2\text{Mg} + \text{O}_2 = 2\text{MgO}$ ; 5)  $\text{Mg} + \text{Cl}_2 = \text{MgCl}_2$ :  
 a) 1 va 2;    b) 2 va 3;  
 c) 3;    d) 1 va 4.

18. Quyidagi keltirilgan oksidlarning qaysilari asosli oksidlar hisoblanadi?

- 1)  $\text{FeO}$ ; 2)  $\text{CO}_2$ ; 3)  $\text{CO}$ ; 4)  $\text{Fe}_2\text{O}_3$ ; 5)  $\text{SO}_2$ :  
 a) 1 va 2;    b) 2 va 3;  
 c) 1 va 3;    d) 1 va 4.

19. Quyidagi ta'riflarning qaysi birida oksidlarga to'g'ri ta'rif berilgan:

1) tarkibi ikkita elementdan iborat bo'lgan murakkab moddalarga oksidlar deyiladi; 2) elementlarning kislorodli birikmalari oksidlar deyiladi; 3) biri kislorod bo'lgan ikkita elementdan iborat murakkab moddalarga oksidlar deyiladi:

- a) 1 va 2;    b) 2 va 3;  
 c) 1;    d) 2.

20. Xalqaro nomenklatura bo'yicha  $\text{CO}_2$  ning to'g'ri nomini belgilang:

- 1) uglerod oksidi; 2) uglerod dioksidi; 3) karbonat angidrid;  
 4) uglerod (IV) oksid:  
 a) 1;    b) 3;  
 c) 4;    d) 2.

## KIMYO fanidan mavzulashtirilgan sinov savollari (javoblari bilan)

**21. Quyidagi oksidlarning qaysilari amfoter oksidlar hisoblanadi?**

- 1)  $\text{FeO}$ ; 2)  $\text{ZnO}$ ; 3)  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ; 4)  $\text{BaO}$ ; 5)  $\text{MgO}$ :  
a) 1 va 2; b) 2 va 3;  
c) 2 va 4; d) 3 va 5.

**22. Quyidagi ta'riflarning qaysi birida asosli oksidlarga to'g'ri ta'rif berilgan?**

- 1) agar oksidlarga kislotalar muvofiq kelsa bunday oksidlarga;  
2) sharoitga qarab asos va kislota xossalarni namoyon qilsa bunday oksidlarga;  
3) barcha elementlarning gidroksidlari to'g'ri keladigan oksidlarga;  
4) agar oksidlarga asoslar muvofiq kelsa bunday oksidlar asosli oksidlar deyiladi:  
a) 3; b) 2;  
c) 1; d) 4.

